

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA
SUV XO'JALIK VAZIRLIGI**

ANDIJON QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI

QISHLOQ XO'JALIGIDA MENEJMENT FAKULTETI

**QISHLOQ XO'JALIGIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT
KAFEDRASI**

« TASDIQLAYMAN»

fakultet dekani, i.f.n.

X.X.KOMOLOV _____

«__» _____ 2016 y.

«HIMOYAGA RUXSAT eTAMAN»

kafedra mudiri, i.f.n.

S.Maxmudov _____

«__» _____ 2016 y.

**“BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT” TA’LIM
YO’NALISHINING BITIRUVCHISI**

MAMADALIYEV DOSTONBEK

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

***MAVZU: ATB “Agrobank” Baliqchi filialida ichki operatsiyalar
hisobi***

BMI rahbari:

katta o'qituvchi:

A.KOMILOV

Ilmiy maslahatchi, i.f.n.:

M.HOJIBOYEV

Bajaruvchi:

D.MAMADALIYEV

ANDIJON – 2016

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA
SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI
ANDIJON QISHLOQ XO'JALIGI INSTITUTI**

QISHLOQ XO'JALIGIDA MENEJMENT FAKULTETI

**QISHLOQ XO'JALIGIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT
KAFEDRASI**

“TASDIQLAYMAN”

Buxgalteriya hisobi va audit kafedrasining
mudiri i.f.n.

S.Q.Maxmudov _____

« ____ » _____ 20__ yil.

**Kunduzgi bo'lim buxgalteriya hisobi va audit ta'lim yo'nalishining
4-bosqich talabasi Mamadaliyev Dostonbek ning
bitiruv malakaviy ishini bajarish uchun**

TOPSHIRIQ

- 1. Bitiruv malakaviy ishining mavzusi:** *institut rektorining 2015 yil 18 sentyabrdagi №240-ST(A) sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.*
- 2. BMIning mavzusi:** *ATB “Agrobank” Baliqchi filialida ichki operatsiyalar hisobi.*
- 3. Bitiruv malakaviy ishni tugatish vaqti:** *1 may 2016 yil.*
- 4. Bitiruv malakaviy ishning asosiy bo'limlari:** *BMI kirish, asosiy qism, xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.*
- 5. Bitiruv malakaviy ishni bajarish uchun kerakli ma'lumotlar:** *“Buxgalteriya xisobi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining qonuni, O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining BXMSlari, Prezident farmonlari, Vazirlar Maxkamasining qarorlari, I.A.Karimov asarlari, mavzuga oid adabiyotlar, hamda ATB “Agrobank” Baliqchi filiali yig'ma va yillik hisobotlari hamda mavzuga oid bo'lgan boshqa ma'lumotlari.*
- 6. Bitiruv malakaviy ishda foydalaniladigan jadvallar:** *Bitiruv Malakaviy ishda mavzu mohiyatini yoritishga yordam beradigan 4 ta jadval, 37 ta uzatma tuzilib, ulardan 6 tasi bevosita ximoya jarayonida foydalaniladi.*

Bitiruv malakaviy ishning asosiy qismlari	Asosiy qismlarni bajarish vaqti	Raxbar unvoni, F. I.SH.	Imzo
KIRISH	20.10-01.11.15	katta o'qituvchi A.Komilov	
1 bob. Tijorat banklarida ichki operatsiyalar hisobini tashkil etishning nazariy asoslari	02.11-26.12.15	katta o'qituvchi A.Komilov	
1.1. Respublika iqtisodiyotida tijorat banklarining tutgan o'rni va ular tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar	02.11-24.11.15	katta o'qituvchi A.Komilov	
1.2. Tijorat banklarida operatsion bo'limining tuzilishi.	24.11-8.12.15	katta o'qituvchi A.Komilov	
1.3. Banklarda analitik va sintetik hisobni yuritish hamda ularni tashkil qilinishi	09.12-26.12.15	katta o'qituvchi A.Komilov	
2 bob. ATB "Agrobank" Baliqchi filialida ichki operatsiyalar hisobining yuritilishi	27.12.15-15.03.16	katta o'qituvchi A.Komilov	
2.1. ATB "Agrobank" Baliqchi filialida kassa operatsiyalari va ularni hisobga olish	27.12.15-15.01.16	katta o'qituvchi A.Komilov	
2.2. ATB "Agrobank" Baliqchi filialida asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar hisobi	16.01.-16.02.16	katta o'qituvchi A.Komilov	
2.3. ATB "Agrobank" Baliqchi filialida daromadlar va xarajatlar hisobi	17.02-15.03.16	katta o'qituvchi A.Komilov	
3-bob. ATB "Agrobank" Baliqchi filialida ichki operatsiyalarni hisobotlarda aks ettirilishi.	15.03-22.04.16	katta o'qituvchi A.Komilov	
3.1. ATB "Agrobank" Baliqchi filialida kunlik balans hisobotini tayyorlash va taqdim qilish.	15.03-25.03.16	katta o'qituvchi A.Komilov	
3.2. ATB "Agrobank" Baliqchi filialida yillik balans hisobotini tuzilishi	26.03-10.04.16	katta o'qituvchi A.Komilov	
3.3. Banklarning omonat kassalarida amaliyot kunini yakunlash va kunlik hisobot tuzishini tekshirish	11.04-22.04.16	katta o'qituvchi A.Komilov	
Xulosa va takliflar.	23.04-28.04.16	katta o'qituvchi A.Komilov	
Foydalanilgan adabiyotlar.	29.04-01.05.16	katta o'qituvchi A.Komilov	

Topshiriq berilgan vaqti: 18 sentyabr 2015 yil.

Rahbar, katta o'qituvchi:

A.Komilov

Bitiruvchi:

D.Mamadaliyev

M u n d a r i j a

	Bet
KIRISH	3-5
1 bob. Tijorat banklarida ichki operatsiyalar hisobini tashkil etishning nazariy asoslari	4-26
1.1. Respublika iqtisodiyotida tijorat banklarining tutgan o'рни va ular tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar	4-12
1.2. Tijorat banklarida operatsion bo'limining tuzilishi.	13-20
1.3. Banklarda analitik va sintetik hisobni yuritish hamda ularni tashkil qilinishi	21-26
2 bob. ATB “Agrobank” Baliqchi filialida ichki operatsiyalar hisobining yuritilishi	27-52
2.1. ATB “Agrobank” Baliqchi filialida kassa operatsiyalari va ularni hisobga olish	27-31
2.2. ATB “Agrobank” Baliqchi filialida asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar hisobi	32-42
2.3. ATB “Agrobank” Baliqchi filialida daromadlar va xarajatlar hisobi	43-52
3-bob. ATB “Agrobank” Baliqchi filialida ichki operatsiyalarni hisobotlarda aks ettirilishi.	53-65
3.1. ATB “Agrobank” Baliqchi filialida kunlik balans hisobotini tayyorlash va taqdim qilish.	53-56
3.2. ATB “Agrobank” Baliqchi filialida yillik balans hisobotini tuzilishi	57-60
3.3. Banklarning omonat kassalarida amaliyot kunini yakunlash va kunlik hisobot tuzishini tekshirish	61-65
Xulosa va takliflar.	66-68
Foydalanilgan adabiyotlar	69-71

Topshiriq tugatish vaqti: 1 may 2016 yil.

Rahbar, katta o'qituvchi:

A.Komilov

Bitiruvchi:

D.Mamadaliyev

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi. Keyingi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, xususan, bank – moliya tizimini mustahkamlash masalasiga qaratilayotgan yuksak darajadagi e'tibor amalda o'z samarasini bermoqda. Respublikamiz bank tizimining bugungi kunga kelib qat'iy xalqaro talablarga javob beradigan eng barqaror moliya muassasalaridan biri sifatida e'tirof etilayotgani ham buning yorqin tasdig'idir. Bu esa iqtisodiyotimizni izchil rivojlantirish, aholi farovonligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilayotir.

Buning isboti sifatida mamlakatimiz Prezidentining mamlakatimizni 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasidagi quyidagi so'zlarini keltirib o'tish kifoyadir: "SHuni ham ta'kidlashimiz zarurki, mamlakatimizda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash borasida olib borayotgan ishlarimiz xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning reytinglarida o'zining ijobiy ifodasini topmoqda. O'tgan yilning oktyabr oyida Jahon banki "Biznes yuritish" reytingini e'lon qildi. Ana shu reytingda O'zbekiston faqat bir yilning o'zida 16 pog'onaga ko'tarilib, 87-o'rinni egalladi."¹

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida bank tizimini O'zbekiston Respublikasida banklar faoliyatini takomillashtirish bilan bog'liq qabul qilingan va qilinayotgan qonunlar hamda qarorlar bilan respublikada xalqaro darajadagi talablarga javob beruvchi bank tizimini shakllantirish, banklarning moliya bozoridagi vositachilik rolini faollashtirish, ularning moliyaviy mustaqilligini ta'minlash, banklar faoliyatini jahon bank amaliyotiga yaqinlashtirish va pirovard natijada, banklarning ichki va Xalqaro moliyaviy bozorlarda raqobatbardoshligini yuqori darajaga ko'tarish bugungi kunning muhim vazifalaridan hisoblanadi.

Qo'yilgan vazifalarni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida banklarning aktivlari sifatini yaxshilash hisobiga ularning moliyaviy

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi gazetasi 2016 yil 16 yanvar

barqarorligini oshirish va ko'rsatilayotgan bank xizmatlari turlarini kengaytirish yo'li bilan ular faoliyatini yuqori samaradorligini ta'minlashdir. YUqori samaradorlikni ta'minlash esa bevosita bank muassasalarida yuritilayotgan buxgalteriya hisobi ishlarini kunning talabi darajasida to'g'ri tashkil etish orqali amalga oshirilishi mumkin. Banklari tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar va boshqa operatsiyalarni to'g'ri hisobini yuritish bugungi kunning dolzarb masalasi bo'lib qolmoqda.

YUqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki banklarda ichki operatsiyalar hisobini tashkil etish xususiyatlarini o'rganish hozirgi kunning eng dolzarb mavzularidan biri hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi banklarda ichki operatsiyalar hisobini tashkil etish xususiyatlarini atroflicha o'rganish asosida ilmiy asoslangan xulosa va takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

Qo'yilgan maqsadga erishish uchun ushbu bitiruv ishi doirasida quyidagi asosiy vazifalar belgilab olindi:

- Respublika iqtisodiyotida tijorat banklarining tutgan o'rni va ular tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarni o'rganish;
- Tijorat banklarida operatsion bo'limining tuzilishi bilan tanishish;
- Banklarda analitik va sintetik hisobni yuritish hamda ularni tashkil qilinishini o'rganib chiqish;
- ATB "Agrobank" Baliqchi filialida kassa operatsiyalari va ularni hisobga olish tartibini yoritish;
- ATB "Agrobank" Baliqchi filialida asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar hisobi bilan tanishib chiqish;
- ATB "Agrobank" Baliqchi filialida daromadlar va xarajatlar hisobini o'rganish;
- ATB "Agrobank" Baliqchi filialida kunlik balans hisobotini tayyorlash va taqdim qilishni o'rganish;
- ATB "Agrobank" Baliqchi filialida yillik balans hisobotini tuzilishini o'rganib chiqish;

- 3.3. Banklarning omonat kassalarida amaliyot kunini yakunlash va kunlik hisobot tuzishini tekshirishni o'rganish.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va uslubiy asoslari. Bitiruv ishining nazariy asoslari bo'lib, Prezidentimiz I.A.Karimovning farmonlari va iqtisodiyotimiz rivojlanishiga bag'ishlangan asarlari, Oliy majlis tomonidan qabul qilingan qonunlar, Vazirlar maxkamasining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan ishlab chiqilgan yo'riqnomalar va ko'rsatmalari hamda O'zbekiston Respublikasi va horij iqtisodchi olimlari tomonidan yaratilgan ilmiy-ommabop asarlari hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti sifatida biz ATB "Agrobank" Baliqchi filialini tanladik.

Bitiruv malakaviy ishining hajmi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, asosiy qismni ifodalovchi uchta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining kirish qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalari, nazariy va uslubiy asoslari, bitiruv malakaviy ishning ob'ekti, ma'lumotlar manbai hamda bitiruv malakaviy ishiga qisqacha xarakteristika berilgan.

Birinchi bobda Respublika iqtisodiyotida tijorat banklarining tutgan o'rni va ular tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar, tijorat banklarida ichki operatsiyalar hisobining tashkil etilishi, ularda analitik va sintetik hisobning xususiyatlari o'rganilgan.

Ikkinchi bob bevosita amaliyot bilan bog'langan bo'lib, unda ATB "Agrobank" Baliqchi filialida ichki operatsiyalar hisobining yuritilishi xolatlari o'rganib chiqilgan.

Uchinchi bobda ATB "Agrobank" Baliqchi filialida ichki operatsiyalarni hisobotlarda aks ettirilishi yoritilgan.

Xulosa va takliflar qismida bitiruv malakaviy ishi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida hosil qilingan xulosa va takliflar ifoda etilgan.

1 BOB. TIJORAT BANKLARIDA ICHKI OPERATSIYALAR HISOBINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Respublika iqtisodiyotida tijorat banklarining tutgan o'rne va ular tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar.

Respublikamiz rivojlanayotgan davlatlar qatoridan o'rin olib borar ekan, iqtisodiyotimizni rivojlanishida banklarning tutgan o'rne va ahamiyati kattadir. Banklar Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga, ya'ni yuridik va jismoniy shaxslarga o'z faoliyatiga tegishli bo'lgan xizmatlarni ko'rsatadi.

Bank – tijorat tashkiloti bo'lib, bank faoliyati hisoblangan quyidagi faoliyatni amalga oshiradigan yuridik shaxs hisoblanadi:

- yuridik va jismoniy shaxslardan omonatlar qabul qilish hamda qabul qilingan mablag'lardan kredit berish yoki investitsiya qilish uchun foydalanish;
- to'lovlarni amalga oshirish².

Tijorat banklari – pul muomalasini boshqaruvchi tashkilot bo'lib, yuridik va jismoniy shaxslarning to'lovlari hamda hisob - kitoblarini bajaruvchi tashkilot hisoblanadi. Tijorat banklari yuridik va jismoniy shaxslarning hisobvarag'ini (schyotini) yuritish bilan birga ularning pul mablag'larini saqlash, shuningdek, kreditlash bilan bog'liq muomalalarni amalga oshiradilar.

Respublikamiz mustaqillikka erishgan davrning dastlabki kunlaridan boshlab, barcha korxonalar va tashkilotlar qatorida tijorat banklarining erkin faoliyat yuritishi uchun keng sharoit hamda imkoniyatlar yaratib berildi.

Prezidentimiz I. Karimov o'z asarida ta'kidlaganlaridek: “SHu o'rinda O'zbekistonda moliyaviy - iqtisodiy, byudjet, bank - kredit tizimi, shuningdek, iqtisodiyotning real sektori korxonalari va tarmoqlarining barqaror hamda uzluksiz

2 O'zbekiston Respublikasining 25 aprel 1996 yildagi “Banklar va bank faoliyati to'g'risida”gi Qonuni 1-moddasi.

ishlashini ta'minlash uchun yetarli darajada mustahkam zahiralarni yaratilganini va zarur resurslar bazasi mavjud ekanini ta'kidlash joiz³”.

Mustaqillikka erishgan kundan boshlab, Respublikamizda tijorat banklari va ularning faoliyatini amalga oshirish, ularda buxgalteriya hisobini yuritish hamda buxgalteriya ishlarini tashkil qilish yuzasidan Qonunlar va Nizomlar ishlab chiqildi. O'zbekiston Respublikasining 21 dekabr 1995 yildagi “O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida”gi, O'zbekiston Respublikasining 25 aprel 1996 yildagi “Banklar va bank faoliyati to'g'risida”gi, O'zbekiston Respublikasining 30 avgust 1996 yildagi “Buxgalteriya hisobi to'g'risida”gi, O'zbekiston Respublikasining 16 dekabr 2005 yildagi “Elektron to'lovlar to'g'risida”gi, O'zbekiston Respublikasining 29 aprel 2004 yildagi “Elektron hujjat aylanishi to'g'risida”gi, O'zbekiston Respublikasining 11 dekabr 2003 yildagi “Elektron raqamli imzo to'g'risida⁴”gi va O'zbekiston Respublikasining 30 avgust 2003 yildagi “Bank siri to'g'risida”gi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank Boshqaruvining 2008 yil 3 maydagi 11/5 - sonli Qarori bilan tasdiqlangan, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2008 yil 11 iyulda 1834 - son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan. “O'zbekiston Respublikasi banklarida buxgalteriya hisobini yuritish va buxgalteriya ishlarini tashkil qilish tartibi to'g'risida”gi Yo'riqnomasi va boshqa xujjatlar shular jumlasidandir.

Iqtisodiyot real sektorining muvaffaqiyatli rivoji moliya sohasining faoliyatiga bog'liq. Bunda, bank tizimining yetarli darajada rivojlantirilishi katta ta'sir ko'rsatadi. O'zbekistonda 1995 yilda qabul qilingan “O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida”gi qonun xamda 1996 yilda qabul qilingan “Banklar va bank faoliyati to'g'risida”gi qonuni ikki pog'onali bank bank tizimining to'laqonli faoliyati uchun huquqiy asos yaratib berdi.

Xozirgi kunda mamlakatimizda 26 ta tijorat banki faoliyat ko'rsatib, ulardan 3 tasi – davlat, 10 tasi – aktsiyadorlik-tijorat, 8 tasi – xususiy va 5 tasi – chet el kapitali ishtirokidagi banklar hisoblanadi. Sohani rivojlantirish borasida amalga

3 Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009, 4-b.

⁴ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami 2004 yil, 12-son, 12-modda

oshirilayotgan tizmi chora-tadbirlar natijasida mamlakatimizdagi bank faoliyatining asosiy ko'rsatkichlarida sezilarli o'zgarishlar kuzatilmoqda. Bugungi kunda bank tizimi kapitalining yetarlilik darajasi xalqaro bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi tomonidan 8 foiz etib belgilangan talabdan 3 barobar yuqori bo'ldi.

Ta'kidlash joizki, tijorat banklarining moliyaviy ko'rsatkichlari va bank tizmining asosiy parametrlari xalqaro reyting kompaniyalarining talab va mezonlariga mos keladi. Bu esa, 2010 yilda umumiy aktivlari bank tizimi jami aktivlarining 90 foizdan ziyodini tashkil etadigan 15 ta tijorat banki uchun "Fitch Reyting", "Mudis", va "Standart end Purs" kabi yetakchi xalqaro reyting agentliklarining "barqaror" reyting bahosini olishga erishish imkonini berdi. 2011 yilda mamlakatimizning 13 ta tijorat banki yuqori reyting baholariga sazovor bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda respublikamizning barcha 26 ta banki ana shunday bahoga loyiq ko'rildi.

O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonunining 4 – "Bank operatsiyalari" nomli moddasida banklar o'z faoliyatlarida quyidagi bank operatsiyalarini amalga oshirilishi ko'rsatib o'tilgan: jismoniy va yuridik shaxslarning, shu jumladan vakil banklarning hisobvaraqlarini ochish va yuritish, hisobvaraqlar bo'yicha hisob - kitob qilish; omonatlarni jalb etish; kreditlarning qaytarilishi, foizlilik va muddatlilik sharti bilan o'z mablag'lari va jalb etilgan mablag'lar hisobidan o'z nomidan kreditlar berish.

SHuningdek, ushbu moddada banklar boshqa turdagi ya'ni quyidagi operatsiyalarni amalga oshirishlari ko'rsatib o'tilgan: mablag' egasi yoki mablag'ni tasarruf etuvchi bilan tuzilgan shartnomaga binoan pul mablag'larini boshqarish; chet el valyutasini naqd pul va naqd bo'lmagan pul shakllarida yuridik hamda jismoniy shaxslardan sotib olish va ularga sotish; pul mablag'lari, veksellar, to'lov va hisob - kitob hujjatlarini inkasso qilish; uchinchi shaxslar nomidan majburiyatlarning bajarilishini nazarda tutuvchi kafolatlar berish; uchinchi shaxslardan majburiyatlarning bajarilishini talab qilish huquqini olish; qimmatli qog'ozlar chiqarish, harid qilish, sotish, hisobini yuritish va ularni saqlash, mijoz

bilan tuzilgan shartnomaga binoan qimmatli qog'ozlarni boshqarish, qimmatli qog'ozlar bilan boshqa operatsiyalarni bajarish; bank faoliyati yuzasidan maslahat va axborot xizmati ko'rsatish; jismoniy va yuridik shaxslarga hujjatlar va boshqa boyliklarni saqlash uchun maxsus binolar yoki ular ichidagi po'lat sandiqlarni ijaraga berish; moliyaviy lizing; xalqaro bank amaliyotiga muvofiq, litsenziyada maxsus ko'rsatilgan boshqa operatsiyalar.

Tijorat banklari mahsulot ishlab chiqaruvchi, xizmat ko'rsatuvchi va byudjet tashkilotlari va jismoniy shaxslarga ham o'z xizmatini taqdim qiladi. Bunday xizmatlar qatoriga quyidagilarni keltirish mumkin:

1. To'lov vositasini amalga oshiradi;
2. Xizmatlar ko'rsatadi.

Banklar tomonidan amalga oshiraladigan faoliyatning tarkibiy qismi hisoblangan xizmatlar ko'rsatishni quyidagi 1 – javdalda keltirilganidek turkumlash mumkin.

1 – jadval

Tijorat banklari tomonidan amalga oshiraladigan faoliyatning tarkibiy qismi hisoblangan xizmatlarning turkumlanishi

№	Bank xizmatlari	Xizmatlarning turkumlanishi
1	Bank faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari	1. O'z faoliyatiga mos xizmatlar. 2. O'z faoliyatiga mos bo'lmagan xizmatlar
2	Xizmatlarni oluvchi sub'ektlar	1. Huquqiy shaxslar 2. Jismoniy shaxslar
3	Bank resurslarini shakllanishi va joylashish usuli	1. Aktiv operatsiyalar 2. Passiv operatsiyalar
4	Ko'rsatilgan xizmat uchun to'lanishi	1. Pulli xizmat. 2. Bepul xizmat
5	Moddiy ne'matlarning harakatiga bog'likligi	1. Moddiy ne'matlarning xarakatiga bog'lik bo'lgan xizmatlar. 2. Sof xizmatlar.

* Muallif tomonidan tayyorlangan

Tijorat banklari faoliyatining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib o'z faoliyatiga mos xizmatlarga bank bajaradigan uchta operatsiyani keltirish mumkin:

1. Depozitlar bo'yicha operatsiyalar.
2. Kredit operatsiyalari.
3. Hisob - kitob operatsiyalari.

1. Depozit operatsiyalari bank mijozlarining omonatlarini joylashtirish bilan bog'liq. Ma'lumki odamlar o'z mablag'larini har xil talon - tarojliklardan asrash maqsadida banklarda saqlashgan. Keyinchalik esa pul mablag'larining qadrsizlanishining oldini olish uchun banklarga qo'yishgan bo'lsa, hozirgi paytda esa daromad olish uchun bankka qo'yishmoqda. Chunki, bankka qo'yilgan pul mablag'lari uchun ssuda foizlarini oladilar.

2. Kredit operatsiyalari bankning asosiy muomalasi hisoblanadi. Shuning uchun ham bankni kredit muassasasi deb ataladi. Chunki, banklar o'z daromadlarining asosiy qismini kredit berish evaziga topadilar.

3. Hisob - kitob operatsiyalari naqd pul bilan va naqd pulsiz shakllarda amalga oshiriladi. Mijozlarning talabi yoki topshirig'iga asosan banklar ularga har xil schyotlar ochishi mumkin. Bu schyotlarga pul mablag'larining kelib tushishi yoki bu schyotlardan to'lov muomalalarini amalga oshirish mumkin. Yuridik va jismoniy shaxslarning hisob - kitob munosabatlarida banklar vositachilik vazifasini bajaradi.

Yuqorida keltirilgan uchta xizmat turini ko'p hollarda traditsion bank operatsiyasi deb ham atashadi. Chunki, shunday uchta xizmat turini bir vaqtda bajara olmagan bankni, bank deb atash mumkin emas. Ma'lumki, shu uchta xizmat turidan birini boshqa kredit muassasalari ham bajara oladi. Misol tariqasida keltirishimiz mumkinki, pochta pul mablag'larini o'tkazish yoki yetkazib berishi mumkin. Har qanday tashkilot ham bo'sh pul mablag'lari hisobidan kredit berishi mumkin, shuningdek, kredit uyushmalari omonatlarni olish evaziga foiz to'lashi mumkin.

O'z faoliyatiga mos bo'lmagan yoki notraditsion xizmat turlariga ko'shimcha operatsiyalar kiradi. Ularning tarkibiga quyidagi muomalalarni kiritishimiz mumkin: valyuta, qimmatli qog'ozlar, oltin, qimmatbaxo metallar va qo'yilmalar bo'yicha oshiriladigan muomalalar.

Tijorat banklari o'z faoliyati davomida bo'sh pul mablag'larini yig'adi va ularni buyurtmachilar o'rtasida qaytarish sharti bilan taqsimlaydi. Bank ko'rsatadigan xizmatlar aktiv va passiv shakllarda amalga oshiriladi.

Aktiv operatsiyalarning keng yoyilgan turlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ssuda;
- investitsiya;
- depozit;
- boshqa chet el valyutalari.

Passiv operatsiyalarning quyidagi to'rtta shakli mavjud:

- tijorat banki qimmatli qog'ozlarning birinchi emissiyasi;
- foydadan fondlarni tuzish va ularni ko'paytirish uchun ajratmalar qilish;
- boshqa yuridik shaxslardan kreditlar olish;
- depozit operatsiyalari.

Tijorat banklari aktiv operatsiyalarni amalga oshirish orqali o'zining va chetdan jalb qilingan resurslarini turli xo'jalik yurituvchi sub'ektlar yoki aholining ehtiyojlari uchun joylashtiradi. Passiv muomalalar yordamida banklar o'z resurslarini shakllantiradi.

Tijorat banklari ko'rsatayotgan xizmatlari uchun to'lanishiga qarab pulli va bepul xizmat turlariga bo'linadi. YA'ni, banklar o'zi ba'zi tomonlarni hisobga olgan holda hisob - kitob, depozit va kredit operatsiyalarining tarkibidagi ba'zi xizmat turlariga haq to'lashni belgilamasligi mumkin.

Moddiy ne'matlarning harakati bilan bog'liqligiga qarab bank xizmatlari quyidagicha turkumlanadi:

- Uning harakati bilan bog'liq bo'lgan xizmatlar;
- Sof xizmatlar.

Tijorat banklari o'zlarining pul operatsiyalari bilan moddiy ne'matlarning yaratilishiga sabab bo'ladi va bunda yangi qo'shimcha qiymatlar yaratishadi.

Sof xizmatlar banklar tomonidan bevosita moddiy ishlab chiqarish jarayoni bilan band bo'lgan xo'jalik sub'ektlariga yoki jismoniy shaxslarning talablarini qondirish uchun ko'rsatiladi.

Demak, yuqorida keltirilganlar asosida xulosa qilib aytish mumkinki, Respublikamiz iqtisodiyotini rivojlanishi va uning ravnaq topishida banklarning tutgan o'rni katta bo'lib, ular tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar natijasida nafaqat o'zlarini, balki xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanishiga yordam beradi, hamda mahsulotlarni takror ishlab chiqarish imkoniyatlarini yaratadi.

1.2. Tijorat banklarida operatsion bo'limining tuzilishi.

O'zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotining rivojlanishida banklar alohida o'rin egallaydi. Bank faoliyatida pul mablag'larining harakati va ularning manbalari xaqidagi ma'lumotlarni yig'ishda buxgalteriya hisobi katta roli o'ynaydi. Buxgalteriya hisobi ma'lumotlaridan foydalanagan holda bankning aktiv va passiv operatsiyalari rejalashtiriladi. Moliyaviy hisobotlarning natijasi bankning moliyaviy holatini ko'rsatadi va bank rahbarlariga bank ishini rivojlantirishda aniq chora-tadbirlar ishlab chiqishga sharoit yaratadi. SHu qabul qilingan siyosat asosida tadbirlarni amalga oshirish mexanizmi yaratiladi, bu faoliyat bank xodimlarining kunlik ish jarayonlarida hamda operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirishda o'z ifodasini topadi.

- Banklarda buxgalteriya hisobini tashkil etish asoslari xalq xo'jaligi turli tarmoqlariga qarashli korxona va tashkilotlarning buxgalteriya hisobi asoslari bilan deyarli o'xshash.

Banklarda buxgalteriya ishini tashkil etish asoslari korxonalar buxgalteriya hisobiga o'xshash bo'lsada, ba'zi bir o'ziga xos xususiyatlari ham mavjud. SHu sababli banklarda buxgalteriya hisobini tashkil qilishda quyidagi qonuniy hujjatlar asos qilib olinadi:

1. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida" gi Qonuni;
2. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida" gi Qonuni;
3. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida" gi Qonuni;
4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank Boshqaruvining 2008 yil 3 maydagi 11/5-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi banklarida buxgalteriya hisobini yuritish va buxgalteriya ishlarini tashkil qilish tartibi to'g'risida" 1834-sonli yo'riqnoma;
5. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining boshqa me'yoriy hujjatlari.

Banklarda buxgalteriya hisobini tashkil qilish qoidalari "O'zbekiston Respublikasi banklarida buxgalteriya hisobini yuritish va buxgalteriya ishlarini

tashkil qilish tartibi to'g'risida" 1834-sonli yo'riqnomada batafsil yoritilgan, jumladan yo'riqnomada buxgalteriya hisobini yuritish qoidalari, buxgalteriya apparatining strukturasi berilgan, bank operatsiyalari hisobini yuritish va ularni nazorat qilish qoidalari ko'rsatilgan, mijozlarga xizmat ko'rsatish hamda hujjatlar aylanishini yo'lga qo'yish usullari to'g'risida ko'rsatmalar berilgan. Bundan tashqari buxgalteriya hisobotini tuzish hamda xalqaro andozalarga asoslangan boshqa bank operatsiyalarini bajarish xajmlari va tartibi belgilab qo'yilgan. SHuningdek, yo'riqnomada buxgalteriya hisobi vazifalari ko'rsatib berilgan bo'lib, bu vazifalar quyidagilardir:

- hisob-kitob, kassa, valyuta, kredit hamda boshqa bank operatsiyalarini to'g'ri bajarish hamda ularni buxgalteriya hisobi va hisobotida o'z vaqtida va aniq aks ettirish;
- bank aktivlari, majburiyatlari, daromadlari va xarajatlari hamda kapitali holati va ulardagi o'zgarishlar to'g'risida ishonchli ma'lumotlar to'plash;
- bankning moliyaviy holati, moliyaviy holatidagi o'zgarishlar va moliyaviy natijalari to'g'risidagi va bank rahbariyati faoliyatiga baxo beruvchi moliyaviy hisobotlarni tuzish uchun xizmat qiluvchi axborotlar tizimini yaratish;
- bank ish kuni tartibiga qat'iy rioya qilish, mijozlarga tez va aniq xizmat ko'rsatish;
- hisob-kitoblardagi mablag'lar aylanishini tezlashtirish;
- bankdan chiqayotgan hujjatlarni tegishli tarzda rasmiylashtirish va buning natijasida ulardan foydalanishni osonlashtirish, shuningdek, boshqa banklarda ushbu hujjatlar bilan operatsiyalar bajarilishini hamda ular tomonidan xizmat ko'rsatuvchi mijozlarning operatsiyalari hisobini yuritishni belgilangan talablarga muvofiqlashtirishni tashkil etish;
- bankdagi pul mablag'lari, moddiy qimmatliklar, shuningdek, qat'iy hisobda turuvchi blankalar kamomadi yoki ortiqchaligiga yo'l qo'ymaslik hamda belgilangan tartibda ularning saqlanishini tashkil etish;

- operatsiyalarning qonuniyligi hamda to'g'riligini doimiy ichki nazorat va auditdan o'tkazish, ularning natijalari bo'yicha ma'lumotnomalar tuzish va rasmiylashtirish imkoniyatini yaratish;
- zamonaviy kompyuter texnikasi vositalaridan foydalangan holda bank operatsiyalari hisobini dasturiy amalga oshirish, hisob ishlarini yuritish hamda hisobotlar tuzishda mexnat va mablag' sarfini qisqartirish.⁵

Umuman, yo'riqnomada bayon etilgan buxgalteriya ishi va buxgalteriya hisobi yuritishni tashkil etishning tartibi yangi kompyuter texnikasi qo'llaniladigan sharoit asosida belgilangan. Yo'riqnomada va uning ilovalarida berilgan operatsiyalarni bajarish, rasmiylashtirish, hisobga olish va nazorat qilish to'g'risidagi ko'rsatmalar O'zbekiston Respublikasidagi barcha banklar uchun majburiydir.

Tijorat banklari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi mulkchilikning qaysi shakliga taalluqli bo'lishdan qat'iy nazar, ular tomonidan yuritiladigan buxgalteriya hisobi Markaziy bank va Moliya Vazirligi tomonidan chiqarilgan yo'riqnoma va ko'rsatmalar talabi darajasida bo'lish kerak.

Ayni paytda bu yo'riqnomalar o'z vaqtida bank filiallariga yetkazilishi, shu bilan birga maxalliy organlar, soliq nazorati organlari bilan muvofiqlashtirilgan bo'lishi lozim. Chunki bank buxgalteriya hisobi ma'lumotlaridan foydalanish doirasi juda kengdir. Xususan, buxgalteriya hisobi va shu asosda tuziladigan bankning moliyaviy hisobotlari, uning ma'lumotlari Markaziy bank, Moliya Vazirligi, Davlat Soliq qo'mitasi uchun tijorat banklarining moliyaviy ahvoli, pul muomalasining holati, xalq xo'jaligidagi naqd pulsiz hisob-kitoblar holatini o'rganish uchun o'ta muximdir.

Bank egalari uchun, shu bilan birga uning xissadorlari uchun bu ma'lumotlar bank mablag'larining qanday jalb qilinayotganligi, ulardan qay usulda foydalanilayotganligi, bank aktiv operatsiyalardan qanday moliyaviy natijalar

⁵ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank Boshkaruvining 2008 yil 3 maydagi 11/5-sonli karori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi banklarida buxgalteriya hisobini yuritish va buxgalteriya ishlarini tashkil kilish tartibi to'grisida" 1834-sonli yo'riqnoma, 2-band.

kutilayotganligini bilish uchun juda muximdir. Bundan tashqari, buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bank rahbarlari, uning xodimlari, ayni chog'da bank mijozlari uchun ham qiziqarlidir. Chunki bank rahbarlari va barcha xodimlari bankning kunlik aktivlari va majburiyatlarining holati, daromadlari va xarajatlarining strukturasi bilan qiziqsalar, bank mijozlari esa bank likvidligi va uning barqarorlik darajasini bilishni istaydilar. Bank moliyaviy ahvoli yomonlashuvini sezgan mijozlar boshqa barqaror bankka o'z mablag'larini o'tkazib uning xizmatidan foydalanishni afzal ko'radilar. 1-jadvalda buxgalteriya hisobotining foydalanuvchilar va ularning manfaati uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar keltirilgan.

Demak, bank buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bank xaqidagi aniq ma'lumotlarni olish nuqtai nazaridan Markaziy bank, Soliq Qo'mitasi, barcha tijorat banklari va mijozlar uchun juda zarurdir. Bu ma'lumotlar asosida bankning likvidligi, yo'l qo'yayotgan xatari, rezervlari, kredit portfeli holatini belgilash imkoniyati yaratiladi.

Bank faoliyati bo'yicha moliyaviy hisobot ma'lumotlaridan bilvosita foydalanuvchilar mavjud bo'lib, ularning ham o'ziga yarasha manfaatdorligi bor. Bunday foydalanuvchilar tipiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- auditorlik firmalari;
- moliyaviy savollar yuzasidan maslahatchilar;
- qimmatli qog'ozlar birjalari;
- qonunchilik idoralari;
- huquqshunoslar, jumladan, xo'jalik sudi vakillari;
- matbuot va axborot agentliklari;
- sug'urta idoralari, kasaba uyushmalari va boshqalar.

Banklarda buxgalteriya hisobini tashkil etishda hisob ishlari hajmini aniqlab olish, buxgalteriya xodimlari sonini, ular o'rtasida hisob ishlari taqsimotini, qo'llaniladigan hisob shaklini, hisob ishlarida hisoblash texnikalaridan foydalanishini belgilab olish kerak bo'ladi.

SHu bilan birga, bank faoliyatiga taalluqli qarorlarni to'g'ri qabul qilinishi buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisob ma'lumotlarini o'z vaqtida va to'g'ri

tuzilganligiga bog'liq bo'ladi. O'z vaqtida olinmagan yoki noto'g'ri yuritilgan buxgalteriya hisob ma'lumotlari noto'g'ri qarorlar qabul qilinishiga, natijada banklarning zarar ko'rishiga, ba'zi hollarda esa bankrotlik holatiga kelishga ham sabab bo'lishi mumkin.

Banklarda bajariladigan barcha operatsiyalarning buxgalteriya hisobini olib borish bankning hisoboperatsion bo'limiga yuklatilgan. Hisoboperatsion bo'lim bank faoliyatining ko'lamini va yo'nalishi, mijozlar soni hamda boshqa ko'rsatkichlarga qarab bir qancha guruhlardan iborat bo'ladi. Bu guruhlarda ish yurituvchilar mas'ul ijrochi deb ataladi. Har bir mas'ul ijrochiga bir nechta mijozlar bo'lib berilib, ular o'z mijozlari bo'lmish yuridik va jismoniy shaxslarning hisobkitob, kassa, valyuta, kredit va boshqa operatsiyalari bo'yicha hisob ishlarini olib boradilar, ularga xizmat ko'rsatadilar. Bu guruhlar hisob guruhi deyiladi. Bundan tashqari, hisoboperatsion bo'limda banklararo hisobkitoblar bo'limi, davlat byudjetining kassa ijrosi bo'limi, bank ichki operatsiyalarini tashkil etish bo'limi ham mavjud bo'ladi. Bu bo'limlarda ishlovchi buxgalterlar soni ham mazkur bo'limda bajariladigan operatsiyalar ko'lamini bilan belgilanadi.

Banklararo hisob-kitoblar bo'limining vazifasi mas'ul ijrochilardan boshqa banklarga tegishli bo'lib, o'tkazilishi kerak bo'lgan hujjatlarni qabul qilish, ularni banklar bo'yicha saralash, hujjatlardagi yozuvlarning to'g'riligini filiallararo aylanmalar bo'yicha nazorat qilish va boshqa bankka hujjatlarni elektron pochta orqali jo'natishdan iborat. Lekin hozirgi kunda deyarli barcha tijorat banklarida hisob-kitob hujjatlari mas'ul ijrochidan so'ng bosh buxgalter tekshiruvidan o'tkaziladi va elektron axborot bankining hisoblash markaziga uzatiladi. Bu yerda elektron to'lovni boshqa banklarga o'tkazish ishlari bajariladi.

Davlat byudjetining kassa ijrosi bo'yicha bo'lim buxgalterlari davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari bo'yicha operatsiyalarni tashkil etadi, bu operatsiyalar hisobini olib boradi, davlat byudjeti xarajatlarining to'g'ri va qonuniy sarflanishi ustidan nazorat qiladi. Ichki bank operatsiyalari bo'yicha bo'limning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- bank asosiy vositalarini, kam baholi va tez eskiradigan buyumlarni sotib olish, ularning eskirishi, qayta baholanishi hamda hisobdan chiqarilishini hisobga olish;
- bank nomoddiy aktivlarini, materiallarni sotib olish, eskirishi, qayta baholanishi, hisobdan chiqarilishini hisobga olish;
- bank boshqaruv apparati va xodimlarining xarajatlarini hisoblash va hisobga olib borish;
- bankning barcha daromadlari bo'yicha hisobni olib borish;
- bankning barcha xarajatlarini hisobga olib borish va hokazo.

YUqorida sanab o'tilgan bo'limlar majmuasi bankning hisoboperatsion bo'limini tashkil etadi. Hisoboperatsion bo'limni bank bosh buxgalteri boshqaradi. Bankdagi mijozlar soni, bajaradigan operatsiyalar ko'lami va hisoboperatsion bo'limdagi guruhlar soniga qarab bosh buxgalterning bir yoki ikki muovini tayinlanadi. YOrdamchi va Bosh kitoblarda operatsiyalarni qayd etish, dasturli kompyuter tizimida hisobotlar tuzish ishlariga umumiy rahbarlik qilish bank bosh buxgalterlariga yuklanadi. Agar bosh buxgalter bo'lmasa, ya'ni mehnat ta'tilida, xizmat safarida yoki kasal bo'lsa, bank rahbarining buyrug'iga ko'ra uning muoviniga topshiriladi. Bankning buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etish bilan bankning bosh buxgalteri shug'ullanadi. Bank bosh buxgalteri bankda hisoboperatsion ishlarni tashkil etadi, bankning moddiy va moliyaviy resurslarining to'la saqlanishini ta'minlaydi. U bank rahbari tomonidan bosh buxgalter vazifasiga tayinlanadi va vazifasidan bo'shatiladi. Agar bankning yuqori bank tashkiloti bo'lsa, yuqori bank tashkiloti rahbari, buxgalteriya hisobi boshqarmasi boshlig'i bilan kelishiladi va Markaziy bank boshqaruvi qoshidagi Komissiya taqdimotidan o'tkaziladi.

Har bir bankda xodimlarning lavozim vazifalari ishlab chiqilgan va tasdiqlangan bo'lishi lozim. Bankning bosh buxgalteri "Bank tizimining bosh buxgalterlari to'g'risidagi" Nizom asosida ish olib boradi.

Bankning barcha hisoboperatsion apparat xodimlari bosh buxgalterga bo'ysunadilar. Bosh buxgalter hisoboperatsion apparat xodimlari uchun majburiyatlar belgilab, o'z vazifalarini bajarish uchun shart-sharoit yaratadi.

Bosh buxgalterning ko'rsatmalarini bajarmaganligi yoki noto'g'ri bajarganligi uchun mukofotdan butunlay, qisman mahrum bo'lishi, alohida hollarda jinoiy javobgarlikka tortilish mumkin. Bundan tashqari, bosh buxgalter bank rahbaridan buxgalteriya hisobini to'g'ri tashkil etish bo'yicha choralar ko'rishni talab qilish, kassalarda pul qabul qilish, saqlash, ishlatish bo'yicha o'rnatilgan qoidalarini to'g'ri bajarish ustidan nazorat qilish, mukofotlar miqdorini ko'paytirish yoki kamaytirish bo'yicha takliflar kiritish huquqiga ega.

Moddiy javobgar shaxslarni, kassir, ombor mudirini lavozimga tayinlash, ishdan bo'shatish va boshqa ishga o'tkazish masalasi ham bosh buxgalter bilan kelishib hal qilinadi. Xodimlarga mansab maoshlari, ish haqiga ustamalar belgilash hamda ularni mukofotlash to'g'risidagi buyruqlar va farmoyishlarni dastlab bosh buxgalter ko'rib chiqadi va ularga imzo chekadi.

SHuningdek, bank bosh buxgalterining javobgarliklari xam mavjuddir. YA'ni, buxgalteriya hisobining noto'g'ri olib borilish natijasida hisobotlarda noto'g'ri ma'lumotlar berilishi, depozit va boshqa hisobvaraqlar, debitorlar va kreditorlar bo'yicha noto'g'ri ma'lumotlar berilishi, hisob ishlari o'z vaqtida olib borilmasligi, buxgalteriya xodimlarining aybi bilan noto'g'ri hisobot berilish xollari, Markaziy bankning me'yoriy hujjatlari bo'yicha xatoliklarga yo'l qo'yilishi, bank rahbari bilan teng ravishda bankning moliyaviy, xo'jalik faoliyatini tashkil qilishda qo'pol xatolikka yo'l qo'yilishi javobgarlikni yuzaga keltiruvchi xolatlar hisoblanadi.

Hisoboperatsion apparatining asosiy xodimlari – bu mas'ul ijrochilardir. Bank mijozlarining asosiy hisob-kitob va boshqa operatsiyalarining hisobini yuritish, mijozlar bilan muloqotda bo'lish aynan mas'ul ijrochilarga yuklatilgan. Mas'ul ijrochilar quyidagi vazifalarni bajaradi:

- biriktirib qo'yilgan bank mijozlari va xodimlardan qabul qilingan hisob-kitob va pul hujjatlariga tegishli ishlov berish;

– taqdim etilgan hujjatlar bo'yicha pul o'tkazish yoki pul to'lash mumkin yoki mumkin emasligini hisobvaraqlardagi pul mablag'larining yetarliligi asosida aniqlash;

– kelib tushgan barcha hisob-kitob hujjatlarini operatsiyalar qonuniyligi hamda ularning kreditlash va hisob-kitob qilish qoidalariga muvofiqligini tekshirish;

– akkreditiv, chek, to'lov topshirig'i, to'lov talabnomasi, inkasso topshirig'i va boshqa hujjatlarning hamda ularga ilova qilingan tovar transport hujjatlarining to'g'ri rasmiylashtirilganini tekshirish, barcha rekvizitlarning mavjudligini aniqlash;

– pul chekining nomeri imzolar va muhr namunasi tushirilgan kartochkada qayd etilgan chek daftarchasining nomeriga to'g'ri kelishini tekshirish;

– chek bo'yicha ish haqi uchun mablag'larni belgilangan hajm doirasida berishini nazorat qilish, bu mablag'lar hisobini yuritish va hokazo.

Operatsiyalarni bajarish yoki rasmiylashtirish bo'yicha buxgalterning ko'rsatmalarini bajarish barcha bank xodimlari uchun majburiy hisoblanadi.

1.3 Banklarda analitik va sintetik hisobni yuritish hamda ularni tashkil qilish

Banklarda buxgalteriya hisobi ikki yo'nalishda olib boriladi. Ulardan biri analitik, ikkinchisi sintetik hisobdir. Xar ikkala yo'nalishdagi buxgalteriya hisobining yuritilishi va umuman banklarda buxgalteriya ishining tashkil etilishi kompiyuter texnikasi qo'llaniladigan sharoitni hisobga olgan holda olib boriladi. Buxgalteriya hisobi jaxon amaliyotida va hisob yuritishning xalqaro andozalarida sintetik hisob o'rniga Bosh kitob deb nomlanuvchi hisob hujjatlari qo'llaniladi. SHuningdek, analitik hisob o'rniga yordamchi kitob deb nomlanuvchi hisob hujjatlaridan foydalaniladi. Biz nazarda tutgan kitob bir qator hisobvaraqlar guruhidir. Bosh kitob bu bank moliyaviy hisobotlarida ko'rsatiladigan hisobvaraqlar guruhidir. Moliyaviy hisobotlarga buxgalteriya balansi, daromadlar va xarajatlarni to'g'risidagi hisobot va boshqalarni kiritish mumkin.

Bosh kitobda birinchi navbat balans hisobvaraqlari bo'yicha jamlama ma'lumotlar qayd etiladi. Demak, hisobvaraqlar Bosh kitobda umumiy ma'lumotni qayd etadi, lekin, batafsil axborot bilan ta'minlamaydi. Batafsil axborot yordamchi kitob ma'lumotlari asosida olinishi mumkin, chunki birlamchi buxgalteriya operatsiyalari yordamchi kitobda aks etiriladi. Undagi hisobvaraqlar guruhi xar bir alohida operatsiya bo'yicha o'tkazilgan summalar xaqida kerakli axborot beradi. YOrdamchi kitob hisobvaraqlariga nisbatan olganda Bosh kitob hisobvaraqlari nazorat hisobvaraqlari vazifasini bajaradi. YOrdamchi kitoblardagi yakuniy summalar xar kun oxirida, shuningdek oy oxirida yangi oyning birinchi kundagi holatiga ko'ra ularning Bosh kitobdagi nazorat yakunlari balansi bilan bir xil chiqish lozim. Bosh kitob nazorat hisobvaraqlarning ma'lumotlari yordamchi kitobdagi tegishli hisobvaraqlar yakuniy summolari bilan taqqoslanadi. Agar dastlabki yozuvlarda xatolarga yo'l qo'yilmagan bo'lsa Bosh kitob va YOrdamchi kitob summolari teng chiqadi.

Xozirgi kunda ko'pgina tijorat banklari mijozlarga so'mda yuritiladigan hisobvaraqlar bilan bir qatorda xorijiy valyutadagi operatsiyalar hisobini yuritish

maqsadida xorijiy valyutadagi hisobvaraqlarni ochishlari mumkin. Xorijiy valyutadagi operatsiyalar bo'yicha Bosh va Yordamchi kitoblar xar bir valyuta turi bo'yicha alohida yuritiladi.

Bosh kitob bo'yicha kodlash tizimi besh xonali bo'lishi lozim. Aktiv hisobvaraqlar kodlari toq, passiv hisobvaraqlarning kodlari esa juft bo'ladi. Bu tartib osonroq qabul qilish va eslab qolish uchun ko'zda tutilgan. Balans hisobvaraqlarida hisob takrorlanadigan yozuv usulida yuritiladi. Operatsiyalar ular bo'yicha mablag'lar harakatlangan kundan qat'iy nazar bajarilgan kuni buxgalteriya hisobida aks ettiriladi.

Birlamchi buxgalteriya operatsiyalarini o'zida aks ettirib, ular xaqida mufassal axborot beruvchi hisobvaraqlar guruhi analitik hisob, ya'ni yordamchi kitob deb yuritiladi. Banklarda yordamchi kitoblar hisobga olinadigan xar bir turdagi mablag'lar va boyliklar bo'yicha ochiladigan shaxsiy hisobvaraqlar, kartochkalar, daftarlar va jurnallarda yuritiladi. Bunda ularning maqsadi, shuningdek hisobvaraqlar egalari ko'rsatiladi.

Banklarda eng ko'p ishlatiladigan yordamchi kitob materiallaridan biri bu shaxsiy hisobvaraqlardir. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar uchun ochiladigan barcha hisobvaraqlar O'zbekiston Respublikasi Bank Depozitorlari Milliy axborot bazasida qayd etiladi. Bunda xar bir mijozga uning qaysi mulkchilik shakliga qarashliligi, faoliyat turi va boshqa belgilariga ko'ra xos raqam ya'ni unikal kod beriladi. Bu kod ushbu mijozga bankda qanday turdagi shaxsiy hisobvaraqlar ochilayotgan bo'lsa, ularning barchasini nomerlashda foydalaniladi. Lekin mijoz hisobvaraqlar ochish uchun avvalo o'z bankiga murojat etadi. Mijoz uchun hisobvaraqlar ochilayotganda bank bosh buxgalteri mijoz taqdim etgan barcha materiallarni yuridik jihatdan to'g'ri rasmiylashtirilganligini tekshirgandan so'ng, barcha kerakli ma'lumotlar asosida belgilangan shakl tuziladi. Bu ma'lumotlar fayli Bank Depozitorlari Milliy Axborot bazasiga jo'natiladi.

Barcha hisobvaraqlar nomerlari 20 xonali sonidan iborat bo'ladi. Mijozlarning shaxsiy hisobvaraqlari mijozlar tomonidan taqdim etilgan, ayrim hollarda bank xodimlari tomonidan rasmiylashtirilgan birlamchi hujjatlari asosida tuziladi.

SHaxsiy hisobvaraqlar dasturiy yo'l bilan ikki nusxada tayyorlanadi. SHaxsiy hisobvaraqdan ko'chirmaning birinchi nusxasi belgilangan tartibda tekshiruvdan o'tkazilgandan so'ng bankda qoldirilib, kundalik hujjatlar yig'majildiga tikiladi. Ikkinchi nusxa shaxsiy hisobvaraqdan ko'chirma bo'lib xizmat qiladi va mijozga beriladi.

SHaxsiy hisobvaraqlarda quyidagi rekvizitlar yozilgan bo'lishi zarur:

- shaxsiy hisobvaraqlarning nomi;
- chiqish shaklining raqami;
- shaxsiy hisobvaraqlarni chop etish tartib raqami (ya'ni kompyuter qo'ygan rakam);
- shaxsiy hisobvaraqlarni tuzgan bank kodi va nomi;
- shaxsiy hisobvaraqlarning raqami va uning nomi;
- hisobvaraqlarga xizmat ko'rsatuvchi buxgalterning raqami, uning familiyasi, ismi, otasining ismi;
- ishlov berish sanasi;
- hisobvaraqlardagi so'nggi harakat sanasi;
- kun boshidagi qoldiq summasi;
- kun oxiridagi qoldiq summasi;
- buxgalteriya yozuvlarining tartibi bo'yicha raqami;
- hujjat turi;
- hujjat raqami;
- hujjat turi (toifasi);
- vakil bankning kodi;
- debet bo'yicha aylanmalar summasi;
- kredit bo'yicha aylanmalar summasi;
- debet bo'yicha aylanmalar umumiy summasi;
- kredit bo'yicha aylanmalar umumiy summasi.

Banklarda shaxsiy hisobvaraqlar va ularning ko'chirmalari kompyuterlarda tayyorlanadi. SHaxsiy hisobvaraqlardan ko'chirmalar kompiyuter yordamida

tayyorlansa, ular mijozlarga berilayotganda imzolar va bank shtamlari bilan tasdiqlanmaydi.

Hisobvaraqlar krediti bo'yicha o'tkazilgan summalar yuzasidan, shaxsiy hisobvaraqlaridan ko'chirmalarga yozuvlarni kiritishda asos bo'lgan dastlabki hujjatlar ilova qilinadi. Puli to'langan hisob-kitob hujjatlarning mijozlar hisobvaraqlaridan ko'chirmalarga ilova qilinadigan, ishlov berishning dastlabki bosqichlaridayoq bank shtampi yoki muxri bosilgan ikkinchi nusxalar, shuningdek kirim kassa operatsiyalariga doir hujjatlar shtamp bilan tasdiqlanmaydi.

Yordamchi kitobning asosiy materiali-shaxsiy hisobvaraqlar bo'lgani uchun biz ular xaqida batafsil to'xtab o'tdik. Lekin yordamchi kitobning boshqa materiallari ham bo'lib, ular ko'zda tutilmagan holatlar bo'yicha hisobvaraqlar uchun ochilgan kartotekalar saqlanuvchi hujjatlardir.

Masalan: "To'lov muddatini kutayotgan hujjatlar" (to'lash uchun roziligi kutilayotgan hujjatlar) nomli 1-kartotekadagi to'lov talabnomalari, akkreditivga ariza; "O'z vaqtida to'lanmagan hisob hujjatlari" deb nomlanuvchi 2-kartotekadagi to'lov talabnomasi, to'lov topshirig'i, inkasso topshirig'i kabi hujjatlar ham tavsifiy hisob uchun asosiy materiallar bo'lib hisoblanadi. Bu hujjatlarning harakati bo'yicha ham hisobvaraqlar tuzilib ular ko'zda tutilmagan holatlar bo'yicha hisobvaraqlar deyiladi. Bu hisobvaraqlar ham alohida sanalar va hisobvaraqlar nomerlari bo'yicha broshyura holiga keltirilib, keyingi oyning 20-kunigacha bankning joriy arxiviga topshiriladi. SHunday qilib, biz yordamchi kitob orqali moddiy boyliklarni, mablag'larni aniq ko'rinishda hisobga olinishi, mablag' va moddiy boyliklar bo'yicha hisob-kitoblarni nomma-nom turi buyicha alohida olib borilishi bilan tanishib chiqdik.

Bosh kitob banklarda umumlashgan hisob xaqida axborot berib, bankning moliyaviy hisobotlarida ko'rsatiladigan hisobvaraqlar guruhi bo'lib hisoblanadi. Bosh kitobga yanada to'liqroq ta'rif beradigan bo'lsak, Bosh kitob balans hisobvaraqlari bo'yicha yordamchi kitob ya'ni tavsifiy hisobvaraqlari ma'lumotlari to'plamidir. Bosh kitob ham yordamchi kitob kabi bir qator materiallar asosida yuritiladi. Bosh kitob materiallari quyidagilar hisoblanadi:

- hisobvaraqlar qoldiqlarining kundalik balans;
- balans hisobvaraqlari bo'yicha oborotlar va qoldiqlar xaqidagi jamlama ma'lumotlar;
- oylik, choraklik va yillik aylanma qaydnomalar;
- kirim va chiqim bo'yicha kassa jurnallari.

Ma'lumki, bankda balans xar kuni tuziladi. Balansning xar ikki aktiv hamda passiv qismlarining o'zaro tengligi bank ishi kuni yakunlanganligini bildiradi. Bosh kitobning barcha materiallari qatori kundalik balans xozirgi kunda bankda dasturiy yo'l bilan kompiyuter yordamida tayyorlanadi. Demak, bankning kundalik balansida sana, balans ichidagi hisobvaraq nomerlari, aktiv va passiv hisobvaraq qoldiqlari ko'rsatilib, bank ish faoliyatini bir kunlik yakunini bildiradi.

Bosh kitob materiallaridan yana biri balans hisobvaraqlari bo'yicha oborotlarning va qoldiqlar jamlama ma'lumotidir. Bunday jamlama ma'lumotda nafaqat balans hisobvaraqlari bo'yicha qoldiq balki, hisobvaraq debetidan va kreditidan o'tgan oborotlar summaları ham aks ettiriladi. SHuning uchun, aniqroq ma'lumot olish uchun xozirgi kunda ko'p banklar kundalik balans bilan birgalikda balans hisobvaraqlari bo'yicha oborotlar va qoldiqlari xaqidagi jamlama ma'lumotlarni ham tuzib boradilar. Ushbu Bosh kitob materialli ham dasturiy yo'l bilan kompiyuter yordamida tayyorlanadi.

Balans hisobvaraqlari bo'yicha oborotlar va qoldiqlar xaqidagi jamlama ma'lumotlarda jadvaldan ko'rib turganingizdek, bank nomi uning filiallararo oborotlar bo'yicha nomeri, sana, debet va kredit oborotlari, aktiv va passiv hisobvaraqlarning qoldiqlari ko'rsatiladi. Bunday jamlama ma'lumotlar bilan birga bank rahbariyatining xoxishiga ko'ra, xar kuni, shu bilan birga oborot va qoldiq summalarining o'sib borish tartibida bir oylik va choraklik, ya'ni hisobot davri uchun tayyorlanishi mumkin.

Oylik, choraklik va yillik aylanma qaydnomalar ham Bosh kitob materiallari bo'lib hisoblanadi. qaydnomalarining xar biri ma'lum bir hisobot davriga ya'ni oy, chorak va yil bo'yicha tuziladi. Ularning xar birida qaydnoma tuzilgan sana, hisobvaraq nomerlari va ular bo'yicha qoldiqlar ko'rsatiladi. Qaydnomalarning xar

biri ma'lum bir hisobot davri uchun kelasi davr boshiga tuziladi. (masalan: yanvari oyi hisobot davri deb olinib qaydnoma yanvari oyi uchun tuzilayotgan bo'lsa, unda kelasi oy, ya'ni fevrali oyining birinchi kuniga bo'lgan qoldiqlar ko'rsatiladi).

Bank kassasi bilan bog'liq bo'lgan Bosh kitob materiallari ikkita bo'lib, ular:

- kassaning kirim jurnali
- kassaning chiqim jurnali.

Xar kuni bank kassasiga topshiralayotgan naqd pul summasi kassaning kirim jurnalida nazoratchi tomonidan qayd etib boriladi. Unda sana, pul topshirayotgan korxona hisobvarag'i nomeri, hujjat nomeri, operatsiya mazmuni, summa ko'rsatiladi.

Kassaning chikim jurnali, ham kundalik chiqim kassa operatsiyalari bajarilganda nazoratchi tomonidan rasmiylashtiriladi. Jurnalda sana, mijozning talab qilib olinadigan depoziti bo'yicha hisobvara q nomeri, korrespondentsiya hisobvarag'i nomeri, operatsiyalar mazmuni, hujjat nomeri, hisobot simvoli, chek summasi ko'rsatiladi. SHu bilan birgalikda nazoratchi va kassirning imzosi uchun ham alohida joy ajratilgan. quyida chiqim kassa jurnalining shaklini keltiramiz.

Kassa jurnallari dasturiy yo'l bilan alohida kassa kiritimi va chiqimi bo'yicha ikki nusxada tuziladi. Balans hisobvarag'i va butun jurnal bo'yicha yakunlar chiqariladi. YAkunlar kassa ma'lumotlari bilan taqqoslangandan so'ng, birinchi nusxalar qo'shimcha daftar ma'lumotlarini Bosh daftar ma'lumotlari bilan taqqoslash, shuningdek kirim va chiqim hujjatlarini taqqoslash uchun ishlatiladi. Operatsion kun tugagandan so'ng, ular yig'majildga (alohida papka) tiqilib, xar kuni hujjatlarni arxivga topshirishga tayyorlovchi xodimga taqdim etiladi.

2 BOB. ATB “AGROBANK” BALIQCHI FILIALIDA ICHKI OPERATSIYALAR HISOBINING YURITILISHI.

2.1. ATB “Agrobank” Baliqchi filialida kassa operatsiyalari va ularni hisobga olish.

Aholi va turli korxona hamda tashkilotlar, aholi o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarda hisob-kitoblar naqd pul yordamida amalga oshiriladi. Masalan, aholiga ish xaqi, nafaqa, mukofot, gonorar, komandirovka xarajatlari to'lashda va aksincha, aholi tomonidan savdo tashkilotlari, madaniy-maishiy xizmat tashkilotlari, dexqon bozori, oziq-ovqat va kiyim-kechak bozorida aholi guruhlari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarda naqd pul ishtirok etadi.

Naqd pul aylanishi xajm jixatidan naqd pulsiz aylanishga nisbatan ancha kam bo'lsada, iqtisodiy aloqalarning me'yoriy holatda tashkil etilishida alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda muomalada bo'lgan naqd pullar banknota va metall tanga pullar bo'lib hisoblanadi. Muomalaga pul chiqarish va olishning mutloq huquqi O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankiga berilgan, lekin yuridik va jismoniy shaxslarni naqd pul bilan taminlash asosan tijorat banklar orqali amalga oshiriladi.

Har bir tijorat bankida korxona va tashkilotlarga kassa xizmatini ko'rsatish uchun bir qancha kassalar tashkil etiladi, ya'ni bank muassasasi o'z tarkibida tarkibiy bo'linma-kassa operatsiyalari bo'limiga ega. Kassa operatsiyalari bo'limida bajariladigan kirim va chiqim kassa operatsiyalari O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2008 yil 17 maydagi 12/2-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Tijorat banklarida kassa ishini tashqil etish, inkassatsiya va qiymatliklarni tashishga doir” (yangi tahriri) yo'riqnomasi asosida tashkil etiladi.

Tijorat banklari tomonidan kassa xizmatini ko'rsatish uchun kassa operatsiyalari bo'limi tarkibida kirim kassasi, chiqim kassasi, kirim-chiqim kassasi, qayta sanash kassasi, qat'iy hisobda turadigan blankalarni berish kassasi, kechki kassalar tashkil etiladi. Ko'rsatib o'tilgan kassalar kassa operatsiyalari

xajmi va kassa xodimlarining belgilangan shtatidan kelib chiqqan holda bank muassasasi farmoyishiga binoan tashkil etiladi. Kassa operatsiyalari bo'limlarining boshliqlari egalab turgan lavozimlariga Markaziy bank va tijorat banklarning viloyat boshqarmalarida tayinlanadilar, tasdiqlanadilar va undan ozod etiladilar. Bo'lim boshlig'i va kassa mudiri lavozimida bank tizimida kamida 3 yil ishlagan shaxslar tayinlanadi.

Bank muassasalarining rahbarlari kassalar va pul omborlarida boyliklar bilan ishlashning belgilangan qoidalarini ta'minlovchi zarur shart-sharoitlarni ta'minlashlari lozim banklardagi kassa tarmoqlari "Kassa tarmoqlarini loyixalashtirish va o'rnatishning texnikaviy talablari"ga muvofiq holda jixozlanadi, uni boshqa xizmatlardan ajratib qo'yish va qoidalariga ko'ra, binoning birinchi qavatida joylashtirilish lozim.

Begona shaxslarning pul omborlari joylashgan joyni kuzatishlari va o'rganishlari uchun xech qanday imkoniyat bo'lmasligi kerak. Kassa binosining eshiklari kun bo'yi davomida ichkaridan berkitilgan bo'lishi lozim. Eshiklarga tashqarini ko'rish uchun kichkina maxsus oynacha o'rnatilgan bo'lish kerak. Kassa tarmog'ining barcha derazalari kechki payt pardalar bilan to'silgan bo'lish shart.

Operatsiya kassasi xar bir kassirning ish joyi kabina o'rnatish orqali ajratib qo'yilishi lozim. Bunday holda boyliklar saqlanishi ustidan mas'ul bo'lgan shaxslarga kassirlar ishini kuzatib turishiga imkon tug'iladi.

Kassirlar stolida qulflanadigan tortmalar bo'lishi kerak, uning kod nomerini faqat kassirlar bilishi kerak. Kassirlar kun davomida boyliklarni saqlash uchun seyflar, metall shkaflar, boyliklarni tashish uchun aravachalar bilan ta'minlanishi lozim. Mijozlarga xizmat ko'rsatiladigan darchalarga ichkari tomonidan qulflanadigan eshikchalar o'rnatilishi lozim.

Kassirlarning o'z pullari, ustki qiyimlari hamda shaxsiy narsalari kassa tarmog'ida, biroq kassa xonasidan tashqarida o'rnatilgan shkaflarda maxsus ajratilgan xonalarda saqlanishi lozim.

Operatsiya kassalarining kassirlari kirim va chiqim kassa hujjatlarini imzolash vakolatiga ega bo'lgan hisob-kassa xodimlarining imzolari na'munalari

bilan, kirim-chiqim kassa operatsiyalarini rasmiylashtirish bilan shug'ullanadigan hisob-operatsiya xodimlari esa kassirlar imzosining namunalari bilan ta'minlanishi kerak. Imzolar namunalarini, tegishli xodimlarga o'z vaqtida berish va ular bekor qilingach kaytarib olish ustidan nazoratni bank muassasasining bosh buxgalteri amalga oshiradi. Ro'yxatlar xar yili 1 yanvari holatiga ko'ra yangilanib turiladi.

Umuman, banklarda kassaning kirim va chiqim operatsiyalarini tashkil qilish uchun hisobvaraqlar rejasining "Aktivlar" bo'limida bir nechta hisobvaraqlar ochilgan.

Xozirgi hisobvaraqlar rejasida "Kassadagi naqd pul va boshqa to'lov hujjatlari" 10100 asosiy hisobvarag'ida kassa operatsiyalarining hisobi olib boriladi. Bu asosiy hisobvaraqlar bo'yicha bir nechta yordamchi hisobvaraqlar - subschet ochilgan:

10101- Aylanma kassadagi naqd pullar

10102- Naqd pullar zaxirasi

10103- Pul almashtirish shoxobchalaridagi naqd pullar

10105- CHEklar va boshqa to'lov hujjatlari

10107- Bankomatlardagi naqd pullar

10109- Yo'ldagi naqd pullar va boshqa to'lov hujjatlari

10111- Bank binosida joylashmagan amaliyot (operatsion) kassalardagi naqd pullar

10198- Markaziy bankka topshiriladigan naqd pullar zaxirasi

Barcha hisobvaraqlar ham mazmun jihatidan aktivdir, ularda qoldiq va mablarlarning ko'payishi debet tomonida, mablag'larning kamayishi esa hisobvaraqlarning kredit tomonida aks ettiriladi.

Barcha korxona va tashqilotlar pul mablag'larini o'zlari tanlagan banklaridagi tegishli hisobvaraqlarida shartnoma asosida saqlaydilar, ya'ni bankka topshirilgan naqd pul bank kassasiga kirim qilinadi, topshirilgan pul summasi korxona hisobvarag'iga yoziladi. Tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi aholidan naqd pulning qabul qilinishi majburiy ravishda nazonat kassa apparatlari qo'llash orqali amalga oshiriladi. Naqd pullarning to'liq va o'z vaqtida topshirilishi bankning pul

muomalasi bo'limi xodimlari tomonidan nazorat qilinadi.

Naqd pulni operatsiya kuni mobaynida qabul qilish uchun bank muassasalarida kirim kassalari tashkil etiladi. Kassaning kirim operatsiyalari deb, korxona va tashkilotlardan tushadigan naqd pul tushumini, turli naqd pul ko'rinishdagi badallar, fuqarolarning naqd pul omonatlari, ish xaqiga olingan pul mablag'larining tarqatilmay qolgan qismi kabi to'lovlarni naqd pul ko'rinishida bank kassa xodimi tomonidan qabul qilinishga aytiladi.

Mijozlar tomonidan topshiriladigan naqd pul bank kassasiga turli xil yo'llar bilan topshirilishi mumkin. Ular naqd pullarni o'zlari, inkasatorlar orqali yoki markazlashtirilgan kassalar orqali bankka topshiradilar. Bank tomonidan naqd pul korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va aholidan naqd pul topshirish to'g'risidagi e'lon bo'yicha kvitantsiyalar berish bilan, boshqa barcha pul tushumlari kirim kassa orderi orqali kvitantsiya berish bilan amalga oshiriladi. Kirim kassa operatsiyalarini bajarishidagi asosiy hujjat bu e'lonnoma - ya'ni pul topshirganlik xaqidagi elondir. Pul topshirishdan avval mijoz tomonidan ushbu e'lonnoma rasmiylashtiriladi.

Operatsiya kuni tugagunga qadar barcha naqd pul shu ish kunining o'zidayoq oborot kassasiga kirim qilinishi va bank muassasining bugalteriya balansi bo'yicha tegishli hisobvarag'iga o'tkazilishi kerak. Demak, kunning oxirida kassaning kirim operatsiyalari bo'yicha bugalteriya yozuvlari amalga oshiriladi. YA'ni bu holda bank kassasi bilan birga pul topshirgan korxona schyotida ham topshirgan summada mablag' ortadi. ATB "Agrobank" Baliqchi filialida kassaning kirim operatsiyalari bo'yicha quyidagi buxgalteriya yozuvlari amalga oshiriladi:

Dt 10101 – "Aylanma kassadagi naqd pullar"

Kt 20200 – "Talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar"

Bu bugalteriya yozuvlaridan shuni ko'rish mumkinki, bir tomondan bank kassasi, ikkinchi tomondan korxona depozit hisobvaraqqasi ko'payyapti, bu hisobvaraqlarning biri aktiv, ikkinchisi esa passiv, shuning uchun bank balansining xar ikkala ham aktiv, ham passiv tomoni bir xil summaga ortadi.

Mijoz pul mablag'larini inkasatorlar orqali topshirsa pul mablag'larini hisobga olish uchun ATB "Agrobank" Baliqchi filialida 19903 – "Inkasso qilingan pul tushumlari va cheklar" hisobvaraقدan foydalaniladi. Bunda pul mablag'lari olib kelinib, xali sanalmaganda quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi beriladi:

Debet 19903 – "Inkasso qilingan pul tushumlari va cheklar"

Kredit 20200 – Talab qilib olinguncha saklanadigan depozitlar

Pul mablag'lari sanalib bo'lganda esa:

Debet 10101 – "Aylanma kassadagi naqd pullar"

Kredit 19903 – "Inkasso qilingan pul tushumlari va cheklar"

buxgalteriya o'tkazmasi beriladi.

Tijorat banklarining chiqim kassa operatsiyalari deb, bank kassalaridan naqd pulning berilishi bilan bog'liq operatsiyalar tushuniladi. Korxona va tashkilotlarning o'z ishchi xodimlari uchun ish xaqi, pensiya, stipendiya, mukofotlar, komandirovka xarajatlari uchun naqd pul olishi mumkin. Korxona va tashkilotlar bankdan naqd pul olish uchun pul cheki rasmiylashtirishlari lozim. Lekin bundan avval korxonaga yangi hisobvaraقد ochilayotgan paytda bankka pul chek daftarchasi olish uchun ariza topshirishlari lozim. Arizada bank nomi va kodi, korxona nomi, uning talab qilib olinadigan depozit bo'yicha hisobvaraقد nomeri, chek daftarchasining nomi, soni, ariza rasmiylashtirilgan sana ko'rsatiladi. Arizaga korxona rahbari va buxgalterining imzosi hamda muhr qo'yiladi. Bank korxonaning arizasiga asosan pul chek daftarchasi yozib, xar bir varaقدda bank nomi, uning kodi, korxona nomi, uning bankdagi hisobvaraقد nomerini ko'rsatadi va mijozga beradi. Chek daftarchasining cheklari bankdan naqd pul olish uchun asos bo'ladi.

ATB "Agrobank" Baliqchi filialida chiqim kassa operatsiyalari bo'yicha quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet 20200 – "Talab qilib olinguncha saklanadigan depozitlar"

Kredit 10101 – "Aylanma kassadagi naqd pullar"

2.2. ATB “Agrobank” Baliqchi filialida asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar hisobi

Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar – bank aktivlarining asosiy moddalaridan biri bo’lib, bank o’z faoliyatini tashkil etishda moddiy bazasini shakllantirishga va bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish uchun yo’naltirilgan mablag’laridir.

Asosiy vositalar – bu moddiy aktivlar bo’lib:

- a) bank faoliyatida bank xizmatlarini ko’rsatish jarayonida, ijaraga berish uchun yoki ma’muriy maqsadlarda ulardan foydalaniladi;
- b) ular bir yildan ortiq vaqt mobaynida foydalanishga mo’ljallangan bo’ladi.

Asosiy vositalarga bino, inshootlar, uskuna va asboblari, kompyuterlar, mebel, hisoblash texnikalari, transport vositalari, foydalanish bilan olingan yer, kutubxona fondi, qiymatidan qat’i nazar, signalizatsiya (ogohlantirish) va binoni qurishda uning narxiga kiritilmagan telefonlashtirish ob’ektlari va shu kabilar tegishli.

Banklarning asosiy vositalari quyidagi usullarda shakllanadi:

- 1) haq evaziga sotib olish;
- 2) qurilish yoki ob’ektlarni rekonstruktsiya qilish yo’li bilan olish;
- 3) tekinga yoki subsidiya ko’rinishida olish;
- 4) moliyaviy ijara (lizing) shartnomasi bo’yicha olish;
- 5) ortiqcha (hisobga olinmagan) asosiy vositalarni aniqlash.

Asosiy vosita bankning buxgalteriya yozuvlarida aks ettirilishi uchun kelajakda bankka ushbu aktiv bilan bog’liq bo’lgan iqtisodiy samara keltirish ehtimoli bor bo’lishi va uning qiymatini ishonchli tarzda baholash mumkin bo’lishi lozim.

Sotib olingan asosiy vositalar balansda boshlang’ich (haqiqiy) qiymati bo’yicha aks ettiriladi. Qurilgan asosiy vositalar dastlab balansda qurilishning amaldagi tannarxi bo’yicha aks ettiriladi.

Tekinga olingan asosiy vositalar balansda dastlab real (haqiqiy) qiymat bo’yicha tan olinadi. Tekinga olingan asosiy vositalarning qiymati, qonunchilikka

muvofiq baholash faoliyati bilan shug'ullanish hududiga ega bo'lgan ekspertlar tomonidan yoki asosiy vositalarni qabul qilish-topshirish to'g'risidagi dalolatnoma ma'lumotlari bo'yicha aniqlanadi.

Asosiy vositalar keyinchalik ularning boshlang'ich (dastlabki) qiymati bo'yicha hisobga olinadi. Asosiy vositalarning boshlang'ich qiymatini o'zgartirishga ularga nisbatan qilingan xarajatlarni kapitallashtirish (qurilishni tugallash, qo'shimcha jihozlash, rekonstruktsiya qilish), qayta baholash yoki tegishli ob'ektlarni qisman tugatish hollarida yo'l quyiladi.

Asosiy vositalarning analitik hisobi har bir ob'ekt, predmet bo'yicha ochiladigan tegishli shaxsiy hisobvaraqlarda yuritiladi.

ATB "Agrobank" Baliqchi filialida asosiy vositalar, qurilish materiallari, mehnat, bino (inshoot)lar qurilishi (ta'mirlanishi) bilan bog'liq xarajatlar va asosiy vositalarni sotib olish bilan bog'liq boshqa kapitallashtirilgan xarajatlar qiymatini oldindan to'liq yoki qisman to'lash quyidagi buxgalteriya yozuvlari bilan rasmiylashtiriladi:

Dt 19909 – "Ko'rsatilgan xizmatlar va tovar-moddiy qimmatliklari uchun to'langan mablag'lar"

Kt 10301 – "Bankning vakillik hisobvarag'i" yoki 20200 Mijoz (mol yetkazib beruvchi)ning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit hisobvarag'i, agarda unga ushbu bank tomonidan xizmat ko'rsatilsa

Sotib olingan transport vositalari balansda quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi bilan aks ettiriladi:

Dt 16529 – "Transport vositalari"

Kt 19909 – "Ko'rsatilgan xizmatlar va tovar-moddiy qimmatliklari uchun to'langan mablag'lar"

Sotib olingan boshqa asosiy vositalarni balansda aks ettirish:

Dt 16500 – "Asosiy vositalar"

Kt 19909 – "Ko'rsatilgan xizmatlar va tovar-moddiy qimmatliklari uchun to'langan mablag'lar"

Asosiy vositalarni omborga kirim qilish quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi bilan rasmiylashtiriladi:

Dt 16561 – “Ombordagi asosiy vositalar”

Kt 19909 – “Ko'rsatilgan xizmatlar va tovar-moddiy qimmatliklari uchun to'langan mablag'lar”

Ta'mirlashni talab qiladigan sotib olingan binolar ta'mirlash ishlari tugagunga qadar 16505 “Tugallanmagan qurilishlar” balans hisobvarag'ining alohida shaxsiy hisobvarag'ida hisobga olinadi. Bunda binolarni (inshootlarni) qurish (ta'mirlash) ishlari bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar, qurilish materiallari va mehnat xarajatlari qabul qilish dalolatnomalariga asosan quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi orqali hisobvarayolarda aks ettiriladi:

Dt 16505 – “Tugallanmagan qurilishlar”

Kt 19909 – “Ko'rsatilgan xizmatlar va tovar-moddiy qimmatliklari uchun to'langan mablag'lar”

Binolar (inshootlar) foydalanishga tayyor bo'lgan holda ularning qiymati tegishli qabul qilish dalolatnomasiga asosan 16509 “Bank imoratlari-binolar va boshqa imoratlar” hisobvarag'iga kirim qilinadi. Agar qurilish yoki ta'mirlash ishlarining xarajatlar smetasida mebel va jihozlarni sotib olish ko'zda tutilgan bo'lsa, unda qabul qilish dalolatnomasida ularning qiymati umumiy qiymatdan ajratib ko'rsatiladi va to'liq ro'yxati ilova qilinadi. Bunda quyidagi buxgalteriya yozuvlari rasmiylashtiriladi:

a) binoning qiymati summasiga:

Dt 16509 – “Bankning imoratlari - Binolar va boshqa imoratlar”

Kt 16505 – “Tugallanmagan qurilishlar”

b) mebel va jihozlarning qiymati summasiga:

Dt 16535 – “Mebel, moslama va jihozlar”

Kt 16505 – “Tugallanmagan qurilishlar”

Agar bank to'lovni asosiy vositalar kirim qilingandan keyin amalga oshirsa, tegishli kirim hujjatlariga asosan quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Moddiy aktivlarni kelib tushganda balansda aks ettirish:

a) Agar asosiy vositalar kelib tushgandan darhol foydalanishga berilsa:

Dt 16500 – “Asosiy vositalarning tegishli hisobvaraqi”, yoki

16505 – “Tugallanmagan qurilishlar” (agar qayta ta’mirlashni talab qiladigan bino, tugallanmagan qurilish yoki qurilish uchun materiallar sotib olinayotgan bo’lsa)

Kt 29802 – “Ko’rsatilgan xizmatlar va moddiy tovar qimmatliklari uchun to’lanadigan mablag’lar hisob-kitobi”

b) Asosiy vositalar omborga kirim qilinganda:

Dt 16561 – “Ombordagi asosiy vositalar»

Kt 29802 – “Ko’rsatilgan xizmatlar va moddiy - tovar qimmatliklari uchun to’lanadigan mablag’lar hisob-kitobi”

2) Aktivlarning qiymati to’langanda:

Dt 29802 – “Ko’rsatilgan xizmatlar va moddiy - tovar qimmatliklari uchun to’lanadigan mablag’lar hisob-kitobi”

Kt 10301 – “Bankning vakillik hisobvarag’i” yoki 20200 – “Mijoz (mol yetkazib beruvchi)ning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit hisobvarag’i”, agarda unga ushbu bank tomonidan xizmat ko’rsatilsa

3) Asosiy vositalarni ombordan foydalanishga topshirganda:

Dt 16500 – “Asosiy vositalarning tegishli hisobvarag’i”

Kt 16561 – “Ombordagi asosiy vositalar”

Asosiy vositalar bepul olinganda quyidagi buxgalteriya o’tkazmasi amalga oshiriladi. Bepul olingan asosiy vositalarning real qiymatiga:

Dt 16500 – “Asosiy vositalarning tegishli shaxsiy hisobvarag’i”

Kt 45994 – “Boshqa foizsiz daromadlar”

Bunda yuzaga keladigan xarajatlar joriy xarajatlarning hisobiga olinadi.

Asosiy vositalar balansda birinchi marta aks ettirilgandan keyin, joriy (haqiqiy) qiymati bo’yicha davriy ravishda qayta baholab borilishi lozim. Qayta baholangandan keyin, asosiy vositalar ob’ekti qayta baholash kunidagi uning haqiqiy (tiklanish) qiymati bo’yicha hisobga olinishi lozim. Quyida ATB

“Agrobank” Baliqchi filialida transport vositalarini qayta baholash bilan bog’liq xo’jalik jarayonlari bilan tanishib chiqamiz.

1) Agar transport vositalarining qayta baholangan qiymati uning balans qiymatidan ortiq bo’lsa, ushbu oshgan summa 30908 – “Boshlangich qiymatiga nisbatan baholash qiymatining oshgan summasi” hisobvarag’ida quyidagi buxgalteriya yozuvi orqali aks ettiriladi:

a) Dt 16529 – “Transport vositalari”

Kt 30908 – “Boshlang’ich qiymatiga nisbatan baholash qiymatining oshgan summasi”

b) Qayta baholashgacha bo’lgan va qayta baholangandan keyingi jamg’arilgan eskirish summolari o’rtasidagi farq summasiga:

Dt 30908 – “Boshlangich qiymatiga nisbatan baholash qiymatining oshgan summasi

Kt 16531 – “Transport vositalarining yig’ilgan eskirish summasi” (kontr-aktiv)

v) Qayta baholash natijasida asosiy vosita qiymatining ko’payish summasi xarajat sifatida tan olingan ushbu aktiv qiymatining oldingi arzonlashish summasini qoplashi darajasidagina daromad sifatida tan olinishi lozim.

Asosiy vositalarga eskirish ular foydalanishga topshirilgan oydan keyingi oydan boshlab hisoblanadi. Asosiy vositalarning amortizatsiyalanadigan summasi ularning foydali xizmat qilish muddati mobaynidagi oylar bo’yicha mutanosib ravishda bank xarajatlariga o’tkaziladi.

Asosiy vositalarga eskirish hisoblash quyidagi usullarni qo’llash yo’li bilan hisoblanadi:

1) bir tekisda (to’g’ri chiziqli) hisoblash usuli;

2) bajarilgan ishlar hajmiga mutonasib ravishda eskirishni hisoblash usuli;

3) tezlashtirilgan usullar:

a) yillar yig’indisi usuli (kumulyativ usul);

b) kamayib boruvchi qoldiq usuli.

Eskirishni hisoblash bo'yicha tanlangan usul hisob siyosatidan kelib chiqib belgilanishi va ketma-ket tartibda bir hisobot davridan keyingi hisobot davriga qo'llanilishi hamda tanlangan usul yil davomida o'zgarmasligi lozim. Amortizatsiya usulini tanlashda foydalanilayotgan ob'ektning nimaga mo'ljallanganligidan va ushbu usulni mazkur ob'ektga nisbatan qo'llashning maqsadga muvofiqligidan kelib chiqish lozim.

ATB "Agrobank" Baliqchi filialida asosiy vositalarga hisoblangan eskirish summolari bank xarajatlari sifatida aks ettiriladi va quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi orqali rasmiylashtiriladi:

Dt 56600 – "Asosiy vositalar tegishli guruhlarining eskirishi xarajatlari"

Kt 16500 – "Jamlangan eskirish - Asosiy vositalarning tegishli hisobvarag'i"

"O'zbekiston Respublikasi banklarida asosiy vositalarning buxgalteriya hisobi to'g'risida" gi (yangi tahriri)1434-sonli yo'riqnomaga asosan asosiy vositalar balansdan quyidagi hollarda hisobdan chiqariladi:

- 1) To'liq jismoniy yoki ma'naviy eskirganda;
- 2) sotilganda;
- 3) bepul berilganda;
- 4) fors-major hollarda;
- 5) kamomad va yo'qotish aniqlanganda; yoki
- 6) aktivdan foydalanishni to'xatish haqida qaror qabul qilinganda va uni hisobdan chiqarishda hech qanday iqtisodiy foyda kutilmaganda.

Asosiy vosita ob'ektlarini hisobdan chiqarishda yoki sotishda yuzaga keladigan foyda yoki zarar aktivni hisobdan chiqarishda tushgan sof tushumning baholangan summasi va shu aktivning qoldiq qiymati o'rtasidagi farq bilan aniqlanadi hamda foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotda daromad yoki xarajat sifatida aks ettiriladi.

ATB "Agrobank" Baliqchi filialining boshlang'ich qiymati 15 mln. so'm bo'lgan binoni 3,5 mln. so'mga nasiyaga sotdi. Binoning xizmat qilish davri davomida 12 mln. so'm eskirish hisoblangan. U holda binoni hisobdan

chiqarishdan bank 500 ming so'm foyda ko'radi. ATB "Agrobank" Baliqchi filialida ushbu xo'jalik jarayoni buxgalteriya hisobi schyotlarida quyidagicha aks ettiriladi:

1) Binoning eskirishi hisobdan chiqarilganda

Dt 16511 – "Binolar va boshqa imoratlarning yig'ilgan eskirish summasi" – 12 mln. so'm;

Kt 16509 – "Bankning imoratlari - Binolar va boshqa qurilgan imoratlar" – 12 mln. so'm;

2) Bino hisobdan chiqarilganda.

Dt 19909 – "Tovar-moddiy qimmatliklar uchun to'langan mablag'lar hisobvarag'i" - 3,5 mln so'm;

Kt 16509 – "Bankning imoratlari - Binolar va boshqa qurilgan imoratlar" - 3,0 mln. so'm;

Kt 45909 – "Bank asosiy vositalarini sotish yoki dispozitsiya qilishdan foyda" – 0,5 mln so'm.

3) Pul kelib tushganda

Dt 20209 – "Talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari" – 3,0 mln so'm;

Kt 19909 – "Tovar-moddiy qimmatliklar uchun to'langan mablag'lar hisobvarag'i" – 3,5 mln so'm;

Nomoddiy aktivlar - moddiy va jismoniy shaklga ega bo'lmagan, foydali xizmat muddati bir yildan ortiq bo'lgan, hamda ulardan bank xizmatlari ko'rsatishda yoki ma'muriy maqsadlar uchun foydalanishga mo'ljallangan aktivlardir.

Nomoddiy aktivlarga patentlar, mualliflik huquqlari, gudvill (goodwill), savdo markalari, kompyuter dasturiy ta'minotlari, litsenziyalar va shu kabilar tegishlidir.

Agar dasturiy ta'minot tegishli jihozning tarkibiy qismi bo'lsa, u moddiy aktiv sifatida qaraladi. Agar dasturiy ta'minot tegishli jihozning tarkibiy qismi bo'lmasa, u nomoddiy aktiv hisoblanadi.

Boshlang'ich (haqiqiy) qiymat - bu nomoddiy aktivlarni sotib olish yoki yaratish bilan bog'liq bo'lgan, to'langan soliqlar, bojxona bojlari va yig'implari, shuningdek, uni ishchi holatiga keltirish bilan bevosita bog'liq bo'lgan boshqa har qanday haqiqiy xarajatlarning summasidir.

Buxgalteriya balansida tan olingan aktiv summasi balans qiymati deyiladi.

Nomoddiy aktivlar hisobini yuritishning asosiy qoidalari, ularning balans qiymati va shu aktivlarga nisbatan qo'llanilishi mumkin bo'lgan amortizatsiya usullarini aniqlash, shuningdek, nomoddiy aktivlar balans qiymatining o'zgarishini aniqlash va hisobini yuritish, amortizatsiyani hisoblash tartibi hamda ularni hisobdan (ya'ni balansdan) chiqarishdan ko'rilgan moliyaviy natijalar hisobini yuritish tartiblaridan iboratdir.

Bankning nomoddiy aktivlari quyidagi usullarda shakllanadi:

- sotib olish;
- bank ichida ishlab chiqish (yaratish);
- tekinga olish.

Sotib olingan nomoddiy aktiv boshlang'ich (haqiqiy) qiymati bo'yicha baholanadi va hisobga olinadi. Nomoddiy aktivlarning boshlang'ich qiymatini o'zgarishiga ularning faqat qayta baholanishi natijasida ruxsat etilishi mumkin.

Nomoddiy aktivlarning analitik hisobi har bir nomoddiy aktiv bo'yicha ochilgan tegishli shaxsiy hisobvaraqlarda yuritiladi.

ATB "Agrobank" Baliqchi filialida nomoddiy aktivlarning sotib olinishiga doir buxgalteriya o'tkazmalarini amaliyot ob'ektidan olingan ma'lumotlarga asoslanadigan bo'lsak ular quyidagi tarzda aks ettiriladi:

Nomoddiy aktivlar qiymatining oldindan to'liq yoki qisman to'lanishi quyidagi buxgalteriya yozuvlari bilan rasmiylashtiriladi:

Dt 19909 – "Ko'rsatilgan xizmatlar va tovar-moddiy qimmatliklari uchun to'langan mablag'lar"

Kt 10301 – "Bankning vakillik hisobvarag'i" yoki 20200 Mijoz (mol yetkazib beruvchi)ning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit hisobvarag'i, agarda unga ushbu bank tomonidan xizmat ko'rsatilsa

Nomoddiy aktivlar kelib tushganda:

Dt 16601 – “Nomoddiy aktivlar”

Kt 19909 – “Ko’rsatilgan xizmatlar va tovar-moddiy qimmatliklari uchun to’langan mablag’lar”

Agar bank nomoddiy aktivlar kelib tushgandan keyin to’lovni amalga oshirsa, quyidagi buxgalteriya o’tkazmalari amalga oshiriladi:

1) Nomoddiy aktivlar kelib tushganda balansda quyidagicha aks etiriladi:

Dt 16601 – “Nomoddiy aktivlar”

Kt 29802 – “Ko’rsatilgan xizmatlar va moddiy - tovar qimmatliklari uchun to’lanadigan mablag’lar hisob-kitobi”

2) Nomoddiy aktivlar qiymati to’langanda:

Dt 29802 – “Ko’rsatilgan xizmatlar va moddiy tovar qimmatliklari to’lanadigan mablag’lar hisob-kitobi”

Kt 10301 – “Bankning vakillik hisobvarag’i” yoki 20200 – “Mijoz (mol yetkazib beruvchi)ning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit hisobvarag’i, agarda unga ushbu bank tomonidan xizmat ko’rsatilsa

Nomoddiy aktivlar bepul olinganda quyidagi buxgalteriya o’tkazmasi rasmiylashtiriladi. Bepul olingan nomoddiy aktivlarning haqiqiy qiymatiga:

Dt 16601 – “Nomoddiy aktivlar”

Kt 30905 – “Tekinga olingan mulklar”

Nomoddiy aktivlarga eskirish (amortizatsiya ajratmalari), ulardan foydalanila boshlangan oyning keyingisidan boshlab hisoblab boriladi. Nomoddiy aktivlarning amortizatsiyalanadigan summasi, ularning foydali xizmat qilish muddati davomida muntazam ravishda bank xarajatlariga o’tkazib boriladi. Nomoddiy aktivlarning foydali xizmat qilish muddati amortizatsiya normalari yordamida aniqlanadi. Amortizatsiya normalari bank tomonidan ularning boshlang’ich qiymati va foydali xizmat qilish muddatidan kelib chiqqan holda hisoblanadi.

ATB “Agrobank” Baliqchi filialida nomoddiy aktivlarning amortizatsiya ajratmalari quyidagi buxgalteriya o’tkazmasi orqali bank xarajatlariga o’tkazib boriladi:

Dt 56618 – “Nomoddiy aktivlarning eskirish summasi”

Kt 16605 – “Nomoddiy aktivlarning yig’ilgan eskirish summasi” (kontr-aktiv)

Nomoddiy aktivlar balansdan quyidagi hollarda hisobdan chiqariladi:

- 1) to’liq eskirganda;
- 2) sotilganda;
- 3) tekin berilganda;
- 4) fors-major holatlarda.

Nomoddiy aktivlarni hisobdan chiqarish natijasida paydo bo’ladigan foyda yoki zararlar, hisobdan chiqarish natijasida baholangan sof tushumlar summasi va aktivning qoldiq qiymati o’rtasidagi farq sifatida aniqlanadi hamda daromad yoki xarajat sifatida foyda va zararlar hisobotida aks ettiriladi.

ATB “Agrobank” Baliqchi filialida nomoddiy aktivlarning chiqib ketishi bilan bog’liq xo’jalik jarayoni hisobda quyidagicha aks ettiriladi:

Nomoddiy aktivlarni hisobdan chiqarishda, qoldiq qiymat quyidagicha aniqlanadi:

- 1) jamg’arilgan eskirish summasiga:

Dt 16605 – “Nomoddiy aktivlarning yig’ilgan eskirish summasi” (kontr-aktiv)

Kt 16601 – “Nomoddiy aktivlar”

Hisobdan chiqarilayotgan nomoddiy aktivlar sotilayotganda quyidagi buxgalteriya o’tkazmasi amalga oshiriladi:

- 1) Nomoddiy aktivlar jo’natilgandan keyin xaridor tomonidan to’lov amalga oshirilgan holda:

Dt 19909 – “Olinadigan hisobvaraqlar - Tovar-moddiy qimmatliklar uchun”

Kt 16601 – “Nomoddiy aktivlar”

- 2) To’lov kelgandan keyingi buxgalteriya yozuvlari:

- a) agar nomoddiy aktivlarning sotilish bahosi qoldiq qiymatidan yuqori bo’lsa:

Dt 10301 – “Bankning vakillik hisobvarag’i” yoki 20200 – “Mijoz (mol yetkazib beruvchi)ning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit hisobvarag’i, agarda unga ushbu bank tomonidan xizmat ko’rsatilsa

Kt 19909 – “Olinadigan hisobvaraqlar - Tovar-moddiy qimmatliklar uchun”

Kt 45913 – “Bankning boshqa xususiy mulklarini sotish yoki dispozitsiya qilishdan olingan foyda”

b) agar nomoddiy aktivlarning sotilish bahosi qoldiq qiymatidan kam bo’lsa:

Dt 10301 – “Bankning vakillik hisobvarag’i” yoki 20200 – “Mijoz (mol yetkazib beruvchi)ning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit hisobvarag’i, agarda unga ushbu bank tomonidan xizmat ko’rsatilsa

Dt 55906 – “Bankning boshqa xususiy mulklarini sotish yoki dispozitsiya qilishdan ko’rilgan zararlar”

Kt 19909 – “Ko’rsatilgan xizmatlar va tovar-moddiy qimmatliklari uchun to’langan mablag’lar”

Nomoddiy aktivlarning qiymati to’liq eskirish, fors-major holatlar bilan bog’liq bo’lganda, bepul berilganda belgilangan tartibda zarar sifatida hisobdan chiqariladi va quyidagi buxgalteriya o’tkazmasi bilan rasmiylashtiriladi:

Qoldiq (tugatish) qiymati summasiga:

Dt 55906 – “Bankning boshqa xususiy mulklarini sotish yoki dispozitsiya qilishdan ko’rilgan zararlar”

Kt 16601 – “Nomoddiy aktivlar”

Xizmat qilish muddati tugashidan qat’iy nazar, agar nomoddiy aktivlar foydalanish uchun yaroqli (foydalanish mumkin) bo’lsa, bank ulardan foydalanishni davom ettirishi mumkin. Bunda nomoddiy aktivlarga eskirish summasi hisoblanmaydi.

2.3. ATB “Agrobank” Baliqchi filialida daromadlar va xarajatlar hisobi

Banklarda buxgalteriya hisobini yuritishda uning faoliyati natijasi bo'lgan daromadlarni hisobga olish va ularni hujjatlarda to'g'ri aks ettirilishi muhim ahamiyatga ega. Bank daromadlari hisobini o'rganishdan avval daromad o'zining nimaligiga to'xtalib o'tsak maqsadga muvofiq bo'ladi.

Daromadlar – bu bankning odatdagi faoliyati natijasi sifatida iqtisodiy resurslarning yoxud aktivlarning oqib kelishi yoki o'sish yo'li orqali, yoxud majburiyatlarning qisqarishi yo'li orqali o'sishidir.

Daromad moddalarini qondirish lozim bo'lgan tan olish mezonlari quyidagichadir:

a) Modda o'lchash uchun tegishli asosga ega va summani oqilona baholashni amalga oshirish imkoniyatining mavjudligi.

b) Kelgusi iqtisodiy manfaatlarining olinishi mumkinligi yoki olinishi.

SHunday qilib, daromadlar odatda shartnomaning bajarilishi amalga oshirilganda va tushumni o'lchash hamda olish imkoni mavjudligi to'g'risida qat'iy ishonch xosil bo'lganda tan olinadi. Daromad va xarajatlar o'zaro sabab-natijaviy munosabatlar bilan bog'liq bo'lganda xarajat daromadga mos keladi va bitta davr daromadining yakuniy hisob-kitobiga kiritiladi. Boshqa hollarda xarajatlar daromadlar bilan bog'liq bo'lmasligi mumkin, biroq bitimlar yoki xodisalar amalga oshiriladigan davrga tegishli bo'lishi mumkin.

Banklarning daromadlari ularning xarajatlarini qoplaydigan asosiy manba hisoblanadi.

Bank o'z faoliyatini amalga oshirishi natijasida oladigan daromadlari asosan ikki manbadan tashkil topadi:

- Foizli daromadlar;
- Foizsiz daromadlar.

Foizli daromadlar quyidagicha turkumlanadi:

- O'zbekiston Respublikasi markaziy bankidagi hisobvaraqlar bo'yicha foizli daromadlari;

- boshqa banklardagi hisobvaraqlar bo'yicha foizli daromadlari;
- oldi-sotdi qimmatli qog'ozlar bo'yicha foizli daromadlari;
- sotishga mo'ljallangan qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar bo'yicha foizli daromadlari;
- sotib olingan veksellar bo'yicha foizli daromadlari;
- mijozlarning majburiyatlari bo'yicha hisoblangan foizlar;
- bankning to'lanmagan aktseptlari yuzasidan mijozlar majburiyatlari bo'yicha foizli daromadlari;
- O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga, shuningdek, boshqa mulkchilik shaklidagi yuridik va jismoniy shaxslarga berilgan qisqa hamda uzoq muddatli kreditlar bo'yicha foizli daromadlari;
- So'ndirish muddatigacha saqlanadigan qarz qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar bo'yicha foizli daromadlari;
- Lizing (moliyaviy ijara) bo'yicha foizli daromadlari;
- Qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshirilgan REPO bitimlari bo'yicha foizli daromadlari;
- Boshqa foizli daromadlardan tashkil topadi.

Foizsiz daromadlarni quyidagicha turkumlash maqsadga muvofiqdir:

- O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga hamda boshqa banklarga ko'rsatilgan xizmatlar va vositachilik uchun olingan daromadlari;
- qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshirilgan brokerlik operatsiyalari bo'yicha daromadlari;
- bankning qimmatbaho metallar, toshlar va tangalar bilan amalga oshirgan operatsiyalari bo'yicha daromadlari;
- sotib olingan debitorlik qarzlari bo'yicha daromadlar – faktoring, bankning trast operatsiyalari bo'yicha daromadlari;
- akkreditivlar va aktseptlar bo'yicha vositachilik va boshqa xizmatlar uchun olingan daromadlari;
- overdraft bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar uchun daromadlari;

- kreditlar bo'yicha vositachilik daromadlari;
- kredit majburiyatlari bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar uchun olingan daromadlar;
- menejment xizmati bo'yicha daromadlari;
- sindikat kreditlarda qatnashganlik uchun olingan daromadlari;
- mahalliy to'lovlar bo'yicha vositachilik xizmatlari uchun olingan daromadlari;
- xorijiy to'lovlar bo'yicha vositachilik xizmatlari uchun olingan daromadlari;
- mijozlarning inkassa operatsiyalari bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar uchun olingan daromadlari;
- kafolatlar va kafilliklar bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirishda ko'rsatilgan xizmatlar uchun olingan daromadlari;
- boshqa ko'rsatilgan xizmatlar va vositachilik uchun olingan daromadlar; xorijiy valyutalardagi foyda, qaram xo'jalik jamiyatlariga, qo'shma korxonalarga va sho'ba xo'jalik jamiyatlariga qilingan investitsiyalardan olingan foyda va dividendlari;
- investitsiyalardan olingan foyda va dividendlari;
- boshqa foizsiz daromadlari, yani bank asosiy vositalarining ijarasidan olingan daromadlari, bankning boshqa ko'chmas mulkka qilingan investitsiyalaridan olingan daromadlari, bank asosiy vositalarni sotish yoki dispozitsiya qilishdan olingan foydasi, bankning boshqa xususiy mulklarini sotish va yoki dispozitsiya qilishdan olingan foydasi, hisobdan chiqarilgan mablag'larining qaytarilishidan ko'rilgan daromadlardan iborat.

Banklarning daromadlarini to'g'ri hisobga olish va moliyaviy hisobot shakllarini tuzish uchun zarur ma'lumotlar majmuini shakllantirishda buxgalteriya hisobi alohida ahamiyatga ega. Buxgalteriya hisobining amaldagi schyotlar rejasida bank daromadlarini hisobga olish uchun alohida to'rtinchi bo'lim schyotlari tayinlangan bo'lib, ularda bank daromadlari turlari bo'yicha hisobga olinadi. Ushbu hisobvaraqlar passiv hisobvaraqlar bo'lib, ularning kreditida olinadigan daromad hisobga olinadi va hisobvaraqlarning debetiga esa qachonki

olingan daromad foyda tarkibiga o'tkazilganda yoziladi. SHuningdek, ushbu hisobvaraqlarning debetiga olinadigan foiz daromadlari noto'g'ri hisoblanganda ham yoziladi.

Fikrimizning isboti sifatida quyidagi ma'lumotlarni keltiramiz. ATB "Agrobank" Baliqchi filiali o'z mijozi hisoblangan mas'uliyati cheklangan jamiyatga olti oy muddatga yillik 18 foiz bilan 5 mln. so'm kredit bergan. Berilgan kredit bo'yicha birinchi oy uchun 75000 so'm foiz to'lovi hisoblandi. Ushbu operatsiya buxgalteriya hisobi hisobvaraqlarida quyidagicha rasmiylashtiriladi:

Dt 16309 – "Kreditlar bo'yicha hisoblangan foizlar" - 75000 so'm

Kt 42601 – "Xususiy korxonalar, xo'jalik shirkatlari va jamiyatlarga berilgan qisqa muddatli kreditlar bo'yicha foizli daromadlar"-75000 so'm

Agar ushbu hisoblangan foiz summasi mijoz tomonidan to'lansa unda:

Dt 20208 – "Xususiy korxonalar, xo'jalik shirkatlari va jamiyatlarning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari" – 75000 so'm,

Kt 16309 – "Kreditlar bo'yicha hisoblangan foizlar" - 75000 so'm.

Hisoblangan foiz to'lovlari yil oxirida sof foyda tarkibiga o'tkazilganda

Dt 42601 "Xususiy korxonalar, xo'jalik shirkatlari va jamiyatlarga berilgan qisqa muddatli kreditlar bo'yicha foizli daromadlar"-75000 so'm

Kt 31206 "Sof foyda (zarar) (aktiv-passiv)" - 75000 so'm

SHunday qilib, banklar faoliyatida olinadigan daromadlarning buxgalteriya hisobi hisobvaraqlarida yuqorida keltirilgan tartibda aks ettirilishi buxgalteriya hisobini xalqaro standartlar talabi darajasida tashkil qilishni taminlaydi va banklarning moliyaviy hisobotlarini tuzish uchun zarur malumotlar majmuini vujudga keltiradi.

Banklar o'z faoliyatlarini amalga oshirish uchun xarajatlar qiladi va bu xarajatlarni hisobini yuritish muhim ahamiyatga ega. Bank xarajatlarini umumiy holda quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

- foizli xarajatlar
- foizsiz xarajatlar
- bankning operatsion xarajatlari

2-jadval

ATB “Agrobank” Baliqchi filialida daromadlar va xarajatlarning Spetsifikatsiyasi (Turkumlanishi)

kod	schyotlar	Schyotlarning nomi	Summa
10		Foiz ko'rishidagi daromadlar	
20	40200	O'zR MBdagi hisobvaraklar bo'yicha foizli daromadlar	
30	40400	Boshka banklardagi hisobvaraklar	
40	40600	Oldi-sotdi kimmatli kogoslar bo'yicha foizli daromadlar	
50	40800	Sotib olingan veksellar bo'yicha foizli daromadlar	
60	41000	Mijozlarning majburiyatlari bo'yicha hisoblangan foizlar	
70	41200	Bankning to'lanmagan akseptlari yuzasidan mijozlar majburiyatlari bo'yicha foizli daromadlar	
80	41400 – 42600 43000 – 43800 43900 – 44600	Ssudalarga hisoblangan foiz ko'rishidagi daromadlar	
90	44700	Sud jarayonidagi kreditlar bo'yicha foizli daromadlar	
100	44800	So'ndirish muddatigacha saklanadigan karz kimmatli kogoslarga kilingan investitsiyalar bo'yicha foizli daromadlar	
110	44900	Boshka foizli daromadlar	
120	45100	Lizing (moliyaviy ijara) bo'yicha foizli daromadlar	
130	20+...+120	Jami foiz ko'rishidagi daromadlar	
140		Foiz ko'rishidagi xarajatlar	
150	50100 – 51100	Depozitlarga foiz xarajatlari	
160	51600	O'zR MBning hisobvaraklari bo'yicha foizli xarajatlar	
170	52100	Boshka banklarning hisobvaraklari bo'yicha foizli xarajatlar	
180	52600	Bankning to'lanmagan akseptlari bo'yicha foizli xarajatlar	
190	53100 – 54100	Ssudalar bo'yicha foizli xarajatlar	
200	54900	Boshka foizli xarajatlar	
210	120+...+200	Jami foiz ko'rishidagi xarajatlar	
220			
230	120 - 210	Sof foiz ko'rishidagi daromad	
240			
250	230 – 240	Zahirani ayrib tashlagandan keyingi sof foiz ko'rishidagi daromad	
260			
270		Foizsiz daromadlar	
280	45200	Vositachilik uchun olingan foizsiz daromadlar	
290	45400	Horijiy valyutadagi foyda	
300	45600	Tijorat operatsiyalaridan olingan foyda	
310	45800	Investitsiyalardan olingan foyda va dividendlar	
320	45900	Boshka foizsiz daromadlar	
330	280+...+320	Jami foizsiz daromadlar	
340			
350	250+330	Jami: daromadlar	
360			
370		Foizsiz xarajatlar	
380	55100	Foizsiz xarajatlar	
390	55300	Horijiy valyutalarda ko'rilgan zararlar	
400	55600	Tijorat operatsiyalaridan ko'rilgan zararlar	
410	55800	Investitsiyalardan ko'rilgan zararlar	
420	55900	Boshka foizsiz xarajatlar	
430	380+...+420	Jami: foizsiz xarajatlar	
440			
450	350-430	Operatsion xarajatlarni chegirmasdan oldingi sof daromad	
460			
470		Operatsion xarajatlar	
480	56100	Bank xizmatchilarining ish xaki va ular uchun kilingan boshka xarajatlar	
490	56200	Ijara va ta'minot xarajatlari	
500	56300	Xizmat safari va transport xarajatlari	
510	56400	Ma'muriy xarajatlar	
520	56500	Reprezentatsiya va xayriya	
530	56600	Eskirish xarajatlari	
540	56700	Sugurta, solik va boshka xarajatlar	
550	56800	Ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarini baxolash	
560	480+...+550	Jami operatsion xarajatlar	
570			
580	450-560	Daromad solig'i hisoblangunga qadar yalpi daromad	
590			
600	56900	Daromad soligini baxolash	
610			
620	580-600	Sof foyda (zarar)	

*ATB “Agrobank” Baliqchi filiali ma'lumotlari asosida tayyorlangan

Ushbu xarajatlarning barchasi buxgalteriya hisobvaraqlari rejasidagi 50000 – “Xarajatlar” hisobvaraqlarida hisobga olib boriladi.

Bankning foizli xarajatlariga quyidagi operatsiyalar bo'yicha hisoblangan foiz to'lovlari kiradi:

- talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlarning turlari bo'yicha foizli xarajatlari;
- O'zbekiston respublikasi markaziy bankining hisobvaraqlari bo'yicha foizli xarajatlari
- boshqa banklarning hisobvaraqlari bo'yicha foizli xarajatlari
- qisqa muddatli kreditlar bo'yicha foizli xarajatlari;
- uzoq muddatli kreditlar bo'yicha foizli xarajatlari;
- chiqarilgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha foizli xarajatlari;
- boshqa foizli xarajatlardir.

Foizsiz xarajatlarga:

- O'zbekiston respublikasi markaziy bankiga to'lanadigan xizmat va vositachilik xarajatlari;
- boshqa banklarga to'lanadigan xizmat va vositachilik xarajatlari;
- qimmatli qog'ozlar oldi-sotdi operatsiyalari bo'yicha to'lanadigan xizmat va vositachilik xarajatlari;
- qimmatbaho metallar, toshlar va tangalar oldi-sotdi operatsiyalari bo'yicha to'lanadigan xizmat hamda vositachilik xarajatlari;
- sotib olingan veksellar bo'yicha to'lanadigan xizmat va vositachilik xarajatlari;
- akkreditivlar va aktseptlar bo'yicha to'lanadigan xizmat hamda vositachilik xarajatlari;
- overdraft bo'yicha xarajatlari;
- kreditlar bo'yicha vositachilik xarajatlari;
- kredit majburiyatlari bo'yicha xarajatlari;
- menejment bo'yicha xarajatlari;

- sindikat kreditlarda qatnashish bilan bog'liq xarajatlar;
- mahalliy to'lovlar bo'yicha va vositachilik xarajatlari;
- xorijiy to'lovlar bo'yicha va vositachilik xarajatlari;
- inkasso operatsiyalarini amalga oshirish bo'yicha va vositachilik xarajatlari;
- kafolat va kafillik operatsiyalarini amalga oshirish bo'yicha va vositachilik xarajatlari;
- boshqa vositachilik va xizmat xarajatlari;
- boshqa foizsiz xarajatlari, yani bank asosiy vositalarini sotish yoki dispozitsiya qilishdan ko'rilgan zararlari, bankning boshqa xususiy mulklarini sotish yoki dispozitsiya qilishdan ko'rilgan zararlar va boshqa zararlari kiradi.

Bankning operatsion xarajatlari tarkibiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- bank xizmatchilarining ish haqi va ular uchun qilingan boshqa xarajatlari;
- ijara va taminot xarajatlari;
- xizmat safarlari va transport xarajatlari;
- ma'muriy xarajatlari;
- reprezentatsiya va xayriya xarajatlari;
- eskirish xarajatlari;
- sug'urta, soliq va boshqa xarajatlari.

Amaliyot ob'ekti hisoblangan ATB "Agrobank" Baliqchi filialida jismoniy shaxslarning muddatli depozitlari bo'yicha foiz hisoblanishi buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

Dt 51106 – "Jismoniy shaxslarning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari bo'yicha foizli harajatlar"

Kt 22402 – "Depozit majburiyatlari bo'yicha hisoblangan foizlar"

Banklar o'z operatsion xarajatlarini ularning bosh banki tomonidan bir yil uchun tasdiqlangan va xabar berilgan smeta assignovaniyalari doirasida amalga

osHIRadilar. Bankning operatsion xarajatlari uchun ajratilgan smeta assignatsiyalari hisobot yilining 31 dekabrigacha amal qiladi. Tugagan yilda amalda qilingan barcha xarajatlar 31 dekabrigacha o'tkazilishi lozim.

ATB "Agrobank" Baliqchi filiali o'z operatsion xarajatlarini ularning bosh banki tomonidan bir yil uchun tasdiqlangan va xabar berilgan smeta doirasida amalga oshiradilar. Bankning operatsion xarajatlari hisobi banklar tomonidan balansda quyidagi tegishli hisobvaraqlarda yuritiladi: 56100 – "Bank xizmatchilarining ish xaqi va ular uchun sarflangan boshqa xarajatlar", 56200 – "Ijara va saqlash", 56300 – "Xizmat safari va transport xarajatlari", 56400 – "Ma'muriy xarajatlar" va shu kabilar. Bu hisobvaraqlarga faqat hujjatlar bilan tasdiqlangan va amalda qilingan xarajatlar kiritiladi.

Kelgusi yillar smetalari hisobidan bankning operatsion xarajatlari uchun qilinadigan xarajatlar hisobi 19925 – "Oldindan to'langan xarajatlar" hisobvarag'ida yuritiladi. Bu hisobvaraqa yil oxirida ta'tilga ketayotgan xodimlarga to'langan ish xaqi, xususan kelasi yilga taalluqli to'lovlar, kelasi yil uchun gazetaga obuna bulish xarajatlari, kelgusi yillar smetalari hisobidan o'rni qoplanishi kerak bo'lgan ijaraga olingan binolarni kapital ta'mirlash xarajatlari summasi va shu kabilar o'tkaziladi. YAngi yilning dastlabki kunlarida shu yilga taallukli xarajatlar "Oldindan to'langan xarajatlar" nomli 19925 - hisobvaraqtan quyidagi tegishli ikkinchi tartib hisobvaraqlariga "Ish xaqi" nomli 56102, "Davriy nashrlar, kitoblar, gazetalar" nomli 56418, "Ijaraga olingan asosiy vositalarni ta'mirlash" nomli 56214-hisobvaraqlarga va tijorat banklaridagi boshqa tegishli hisobvaraqlariga o'tkaziladi.

ATB "Agrobank" Baliqchi filialida ishchilarga ish haqi hisoblanganda quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi orqali rasmiylashtiriladi:

Dt 56102 – "Bank xizmatchilarining ish xaqi va ular uchun sarflangan boshqa xarajatlar"

Kt 29803 – "Bank xodimlariga to'lanishi lozim bo'lgan mablag'lar hisob-kitobi"

Ish haqi to'langanda:

Dt 29803 – “Bank xodimlariga to’lanishi lozim bo’lgan mablag’lar hisob-kitobi”

Kt 10101 – “Aylanma kassadagi naqd pullar”.

3-jadval

ATB “Agrobank” Baliqchi filialining daromadlari tarkibi va tuzilmasi tahlili

(ming so’m hisobida)

Daromadlar-ning tarkibi	2014 yil		2015 yil		O’zgarish	
	Summa	Salmog’i %	Summa	Salmog’i %	Summa (+; -)	%
Foizli daromadlar	556285,3	68,7	635356,1	65,5	+79070,80	14,2
Foizsiz daromadlar	253789,5	31,3	334626,2	34,5	+80836,7	31,8
Jami daromadlar	810074,8	100,0	969982,3	100,0	+159907,5	19,7

* ATB “Agrobank” Baliqchi filialining ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

Jadval ma’lumotlaridan ko’rinib turibdiki ATB “Agrobank” Baliqchi filialining daromadlari 2014 yilda 810074,8 ming so’mni tashkil etgan bo’lsa, 2015 yilda esa 969982,3 ming so’mga teng bo’lmoqda. Daromadlar foizli va foizsiz daromadlarga bo’linmoqda. 2015 yilda jami daromadlar 2014 yilga nisbatan 19,7 foizga ya’ni, 159907,5 ming so’mga ortgan. Ma’lumotlardan ko’rinib turibdiki, foizli daromadlarning salmog’i 2015 yilda 2014 yilga nisbatan kamaygan. Foizsiz daromadlar salmog’i esa 2015 yilda 2014 yilga nisbatan ortgan.

Quyidagi jadvalda ATB “Agrobank” Baliqchi filialining xarajatlari tarkibi aks ettirilgan. Jadval ma’lumotlaridan ko’rinib turibdiki, jami xarajatlar 2015 yilda 950793,8 ming so’mga teng bo’lgan bo’lsa, 2014 yilda 799814,8 ming so’mni tashkil etgan. Xarajatlar tarkibida operatsion xarajatlar asosiy salmoqni egallab kelmoqda.

**ATB “Agrobank” Baliqchi filialining xarajatlari
tarkibi va tuzilmasi tahlili**

(ming so'm hisobida)

Xarajatlarning tarkibi	2009 yil		2010 yil		O'zgarish	
	Summa	Salmo- g'i %	Summa	Salmo- g'i %	Summa (+; -)	%
Foizli xarajatlar	268737,8	33,6	298549,3	31,4	+29811,5	+11,1
Foizsiz xarajatlar	119972,2	15,0	150225,4	15,8	+13445,5	+25,2
Operatsion xarajatlar	411104,8	51,4	502019,1	52,8	+40123,1	+22,1
Jami xarajatlar	799814,8	100	950793,8	100	+62336,3	+18,9

* ATB “Agrobank” Baliqchi filialining ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

Biz yuqorida ATB “Agrobank” Baliqchi filialida daromadlar va xarajatlar hisobini yuritish tartibi bilan tanishib chiqdik. Yilning oxirida ATB “Agrobank” Baliqchi filialida daromadlar va xarajatlari va ATB “Agrobank” Baliqchi filialining boshqa filiallarining daromadlar va xarajatlari asosida ATB “Agrobank” bosh banki tomonidan foyda va zarar to'g'risidagi hisobot tayyorlanadi. Xulosa qilib aytish mumkinki banklar faoliyatida daromad va xarajatlarni hisobda to'g'ri aks ettirish orqali banklarning yakuniy moliyaviy natijasini hatosiz aniqlash imkonini beradi.

3 BOB. ATB “AGROBANK” BALIQCHI FILIALIDA ICHKI OPERATSIYALARNI HISOBOTLARDA AKS ETTIRILISHI.

3.1. ATB “Agrobank” Baliqchi filialida kunlik balans hisobotini tayyorlash va taqdim qilish.

Tijorat banklarida har kuni qonun va me'yoriy hujjatlarda belgilangan tartibda bir qator operatsiyalar bajariladi. Banklar operatsiyalarning bajarilishi va ularning buxgalteriya hisobida aks ettirilishi to'g'risida hisobot tuzilishi va ularni tegishli tashkilotlarga taqdim etishi lozim. Tijorat banklari tomonidan tuziladigan eng asosiy hisobot kunlik balansidir.

Banklar kunlik bajarilgan buxgalteriya hisobi ma'lumotlari asosida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan o'rnatilgan shaklda kunlik balans hisoboti tuzadi. Kunlik balans hisoboti Bosh bank tomonidan butun bank bo'yicha yagona qilib tayyorlanadi.

Bosh bankning Buxgalteriya hisobi va hisoboti departamenti (boshqarmasi) tomonidan yagona balans hisobotini tuzish ustidan monitoring o'rnatiladi.

Yagona balans “Bank binosidan tashqarida joylashgan mas'ul ijrochi buxgalter” qoidasi asosida shakllantiriladi. Bunda ma'lumotlarni qayta ishlovchi Bosh server Bosh bankda, filiallarda esa yagona lokal hisoblash tarmog'iga ulangan buxgalter, iqtisodchi, filial rahbariyati va boshqa xodimlarning ishchi stantsiyalari joylashgan bo'ladi.

ATB “Agrobank” Baliqchi filialida barcha pul hisob-kitob hujjatlari (to'lov topshiriqnomasi, to'lov talabnomasi, inkassa topshiriqnomasi, akkreditivga ariza, memorial orderlar, inkasso qilingan pul tushumlariga ilova ro'yxati, e'lonnoma va pul cheklari) asosida amalga oshirilayotgan operatsiyalar maxsus o'rnatilgan belgilar sifatida Bosh serverga avtomatik uzatiladi va shu zahoti Bosh serverda aks ettiriladi.

Har ish kuni oxirida Bosh bankda kun davomida amalga oshirilgan operatsiyalarning banklararo, filiallararo va ichki bank operatsiyalariga bo'lingan holdagi ro'yxati tayyorlanadi. Bu operatsiyalarning jamlanma summasi kun

mobaynida amalga oshirilgan butun bank operatsiyalari summasiga teng bo'lishi lozim.

Bosh bank O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Axborotlashtirish bosh markazidan END faylni olgandan so'ng, kun yopish bilan bog'liq bo'lgan barcha operatsiyalarni bajaradi va shu zahoti o'zining filiallariga kun davomida amalga oshirilgan operatsiyalar to'g'risida END faylga mos bo'lgan nazorat faylini yuboradi.

ATB "Agrobank" Baliqchi filialida o'rnatilgan tartibda kunlik buxgalteriya hujjatlarini yig'majildga tikishlari va ularni balans ma'lumotlari bilan solishtirishlari lozim. Har bir hisobot shakli filial rahbari va bosh buxgalteri tomonidan sinchiklab tekshiriladi.

Bosh bank rahbarlari balans bo'lmagan, hisobda tartibga solinmagan tafovutlar chiqqanda va bir kun davomida mijozlarga xizmat ko'rsatilishi ta'minlanmagan hollarda bu kamchiliklarni bartaraf etish uchun zarur barcha chora-tadbirlarni ko'rishi lozim.

Bank filiallari rahbarlari va bosh buxgalterlari balans chiqmaganligi haqida belgilangan muddatda Bosh bankka xabar qilmasalar, ularga nisbatan egallab turgan lavozimlaridan ozod qilishgacha bo'lgan choralar ko'riladi.

Balansning to'g'ri tuzilganligi quyidagi tartibda tekshiriladi:

– kunlik balansning aktiv va passivlarning qoldiqlar bo'yicha yakunlari tengligi (aktiv hisobvaraqlari qoldiqlarining majburiyatlar hisobvaraqlari qoldiqlari plyus kapital hisobvaraqlari qoldiqlariga tengligi);

– "Ko'zda tutilmagan holatlar" hisobvaraqlari qoldiqlari yakunining to'g'riligi, shu hisobvaraqlar bilan ularga tegishli kontrhisobvaraqlar qoldiqlarining o'zaro tengligi;

– aktiv hisobvaraqlarda kredit qoldiq (kontraktiv hisobvaraqlardan tashqari), passiv hisobvaraqlarda debet qoldiq (kontrpassiv hisobvaraqlardan tashqari) bo'lmasligi;

– aktiv hisobvaraqlarga ochilgan kontraktiv hisobvaraqlar qoldig'i shu aktiv hisobvaraqlar qoldig'idan ortiq bo'lmasligi, passiv hisobvaraqlarga ochilgan

kontrpassiv hisobvaraqlar qoldig'i shu passiv hisobvaraqlar qoldig'idan ortiq bo'lmasligi;

– Bosh bankda ochilgan 16100 va 22200 – hisobvaraqlari qoldiqlari hamda ular bo'yicha ochilgan ikkinchi tartibli mos hisobvaraqlarning qoldiqlari o'zaro teng bo'lishi;

– asosiy vositalar, daromadlar va xarajatlar hamda bank kapitali hisobi faqat milliy valyutada yuritilishini ta'minlash va balansning rezident va norezident ustunlarini shunga mos ravishda to'ldirilganligi.

Balansning to'g'riligiga ishonch hosil qilgandan so'ng kunlik buxgalteriya hisoboti sifatida bir nusxa balans chop etiladi. Bosh bankda butun bank bo'yicha, filiallar esa o'z filiallari bo'yicha balans chiqaradilar.

Bankning yagona kunlik balansi bank rahbari va Buxgalteriya hisobi va hisoboti departamenti direktori tomonidan imzolanishi lozim.

Filiallar balansi filial boshqaruvchisi va uning bosh buxgalteri tomonidan, kassa operatsiyalari bo'yicha hisobotlarga ulardan tashqari kassa mudiri yoki mas'ul kassa xodimi imzo chekadi.

Banklar balansi boshqa zarur ma'lumotlar bilan birgalikda Markaziy bankka taqdim qilish uchun Bosh serverdan Axborotlash boshqaruv tizimiga uzatiladi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Buxgalteriya hisobi, hisoboti va davlat byudjeti kassa ijrosi departamenti tijorat banklari va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining hududiy Bosh boshqarmalarining balanslarini alohida jamlab, so'ngra butun respublika banklari bo'yicha yig'ma balans tuzadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank balansi Buxgalteriya hisobi, hisoboti va davlat byudjeti kassa ijrosi departamenti tomonidan, tijorat banklari balanslari Kredit tashkilotlarini faoliyatini litsenziyalash va tartibga solish departamenti tomonidan tahlil qilinadi.

Tahlil natijalari bo'yicha tijorat banklariga tegishli ko'rsatmalar beriladi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining vakolatli departamentlari ABTdan o'rnatilgan tartibda balans va boshqa tegishli ma'lumotlar olishi mumkin.

Kunlik balansdan tashqari bankda boshqa hisobotlar ham tuzib boriladi, har bir hisobotning belgilangan shakllari, ularni topshirish muddati alohida belgilanadi.

Hisobotlarning maqsadi, topshirish muddatlari va shakllari “O‘zbekiston Respublikasi banklarida statistika hisobotlarini tashkil etish qoidalari” sarlavhali 221-yo‘riqnomada bayon etilgan. Bu hisobot shakllariga quyidagilar ilova qilinadi:

- “Tovarmoddiy qimmatliklar uchun to‘langan mablag‘lar” nomli 19909, “Tovarmoddiy qimmatliklar uchun olinadigan mablag‘lar” nomli 29802 hisobvaraqlar, “Tugallanmagan qurilish” nomli 16505 hisobvaraqlar bo‘yicha qoldiqlar qaydnomasi;

- aniqlanguncha o‘zaro hisobkitoblar bo‘yicha o‘tkazilgan summalar qaydnomasi, shuningdek, qaydnomaga “Kliring transaksiyalari degan 17301, 23202, “Aniqlanish jarayonidagi transaksiyalar” 17305, 23206 hisobvaraqlar bo‘yicha qoldiqda turgan har bir summa ham kiritiladi. YUqorida aytilgan hisobvaraqlarda qoldiq bo‘lmasa, bu haqda balans hisobotiga yozib qo‘yiladi.

Har bir hisobot shakli va qaydnomalarini bank rahbari hamda bosh buxgalteri mufassal ko‘rib chiqishi va imzolashi kerak. Kassa operatsiyalari bo‘yicha hisobotlariga ulardan tashqari katta kassir yoki kassa mudiri ham imzo chekadi. Banklarda hududiy viloyat boshqarmalari, shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi tegishlicha o‘z banklariga hamda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga hisobot topshiradi.

YUqori banklarga kelib tushgan buxgalteriya hisobotlari tekshiriladi, tahlil qilinadi va uning asosida zarur boshqaruv qarorlari qabul qilinadi.

Hisobot ma‘lumotlarida nomuvofiqlik borligi aniqlansa, uning sabablari eng qisqa muddatda topilishi va tartibga solinishi lozim. Banklarning viloyatlardagi (har kuni), respublikalardagi (har oyda) rahbarlari balanslarni ko‘rib chiqishlari hamda bosh buxgalterning ularga qarashli banklarda buxgalteriya ishi, buxgalteriya hisobi va hisoboti ahvoli, shuningdek, bu ishda aniqlangan kamchiliklarni qanday bartaraf etilayotgani to‘g‘risidagi axborotni tinglashi kerak.

3.2. ATB “Agrobank” Baliqchi filialida yillik balans hisobotini tuzilishi

Yillik buxgalteriya hisoboti tarkibi, mundarijasi va uni taqdim etish tartibi O'zbekiston Respublikasi banklarining alohida ko'rsatmalari bilan belgilab qo'yiladi. Respublika tijorat banklari buxgalteriya balanslarini nusxasini va boshqa shakldagi hisobotlarni O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tegishli departamentlariga taqdim etadi.

Hozirgi kunda banklar yil tugagandan so'ng “balans hisoboti” deb yuritiladigan hisobot tuzadi.

Balans ikki qismdan, ya'ni aktiv va passiv qismlardan iborat. Aktiv va passiv tomonlarning o'zaro tengligi balans to'g'ri chiqarilganligi, bank ish kuni to'liq yakunlanganligini bildiradi. Balansning aktiv tomoni naqd pullar, Markaziy bank vakillik hisobvarag'i, xorijiy valutadagi pul mablag'lari, majburiy zaxiralar fondi, qimmatbaho qog'ozlarga qo'yilmalar, kreditlar, sarmoyalar, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar kabi asosiy hisobvaraqlardan tashkil topgan. Passivlar qismi o'z ichiga depozitlar, boshqa banklardan olingan kreditlar, bank chiqargan qarz majburiyatlari, aktsionerlik kapitali kabi hisobvaraqlarni oladi.

Endi bank balansi aktiv va passivlarining qisqacha tavsiflarini ko'rib chiqamiz. Aktivlar tavsifini “naqd pullar”dan boshlaymiz.

Naqd pullar – bank mablag'lari toifasi bo'lib, bankning to'lov faoliyatining ahvolini belgilaydi va mijozlarning naqd pulga bo'lgan talablarini qondirish uchun bankning mijoz oldidagi o'z majburiyatlarini bajarish qobiliyatini ochib beradi.

Markaziy bankdagi vakillik hisobvarag'i bo'lib, unda ayni paytda bankda mablag'lar borligi aks ettiriladi. Har qanday bankning hisobvarag'i Markaziy bankda turadi va aktiv hisobvaraq hisoblanadi. Mablag' o'tkazish yoki mablag'larning tuzilishi bo'yicha bank amalga oshiradigan hamma operatsiyalar vakillik hisobvarag'ida aks ettiriladi.

Xorijiy valutadagi pul mablag'lari – tijorat banklarining valuta bozoridagi operatsiyalari hajmini belgilaydi.

Majburiy zaxiralar fondi Markaziy bankdagi alohida hisobvarag'ida turadigan bank mablag'lari bo'lib, O'zbekistonning hamma tijorat banklari tomonidan majburiy tartibda zaxiralanadi, bu esa tijorat bankining likvidligini saqlab turishiga ma'lum darajada kafolat bo'ladi. Majburiy zaxiralar fondiga ajratmalarning foiz stavkalarini belgilash Markaziy bank tomonidan o'tkaziladigan tijorat banklari likvidligini saqlab turishning eng ta'sirchan mexanizmi hisoblanadi.

Qimmatli qog'ozlarga qo'yilmalarda – tijorat bankining fond bozoridagi operatsiyalari aks ettiriladi va balans aktivining boshqa ko'rsatkichlari bilan taqqoslanganda, qimmatli qog'ozlar bilan bo'ladigan operatsiyalarda bankning amaliy faolligini ifodalaydi. Tijorat bankining qimmatli qog'ozlari emitentlar maqomiga qarab ikki toifaga bo'linadi:

- Hukumat yoki Markaziy bank chiqargan qimmatli qog'ozlar;
- xo'jalik yurituvchi subektlar chiqargan qimmatli qog'ozlar.

Hukumat yoki Markaziy bank chiqargan qimmatli qog'ozlar yuqori darajada likvidligi bilan ajralib turadi, ammo bu qog'ozlarning daromadlilik boshqa emitentlar chiqargan qimmatli qog'ozlarnikidan bir muncha past bo'ladi.

Kreditlar – tijorat banklarining kreditga doir operatsiyalari bo'yicha bank foyda olishining belgilovchi moddasi hisoblanadi. Balansda kredit muddatlari va iqtisodiyotdagi xo'jalik yurituvchi subektlarning qaysi mulkchilik shakliga berilishiga qarab tasniflanadi.

Sarmoyalar – bankning xo'jalik yurituvchi boshqa subektlar, moliya tashkilotlari faoliyatidagi ulushli ishtirokini ko'rsatadi. Bank sarmoyalari korxona faoliyatini boshqarish yo'li bilan foyda, dividendlar yoki boshqa turdagi daromad olish maqsadida bank turli loyihalarga yo'naltirilgan mablag'lar hajmini ifodalaydi.

Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar – bank aktivlarining asosiy moddalaridan biri hisoblanadi, chunki bank o'z faoliyatini tashkil qilish uchun moddiy bazaga, operatsiyalarni bajarish uchun shartsharoitga ega bo'lishi lozim. Bankning asosiy vositalariga binoinshootlariga, kapital qurilish uchun bank

tomonidan qilingan xarajatlar, ofis va ish mebeli, jihozlar, kompyuter va boshqa hisoblash texnikasi, aloqa vositalari va hokazolar kiradi. Markaziy bank belgilangan me'yorlar tijorat bankining kapital xarajatlari miqdorini bank aktivining 10 foiz miqdorida cheklaydi.

Endi bank balansining passiv qismidagi moddalar bilan tanishib chiqamiz.

Bank balansining passiv qismi depozitlardan boshlanadi. Depozitlar – bankning boshqa subektlardan xarid qilingan manbalarini ifodalaydi. Ular talab qilib olinadigan, jamg'armali va muddatli depozitlarga bo'linadi. Talab qilib olinadigan depozitlardan tashqari barcha depozitlar kredit resurslarining eng barqaror manbalaridan hisoblanadi. Jalb qilingan manbalardan muddatli depozitlar ulushining oshishi qo'yimalarni uzoqroq muddatga, shu bilan birga, yuqoriroq foiz bilan amalga oshirish imkonini beradi, bu esa bankning omonatlar (depozitlar) bo'yicha foiz xarajatlarni qisqartiradi va foyda olish hamda likvidlik manfaatlariga xizmat qiladi.

Boshqa banklardan olingan kreditlar – tijorat bankning bo'sh mablag'larini qayta taqsimlash borasida boshqa moliya muassasalari bilan o'zaro munosabatlarini ifodalaydi. Ammo banklararo kreditlar bir tomondan boshqa mablag'larga nisbatan olishga osonroq hisoblangani bilan, ikkinchi tomondan, eng qimmat kredit manbalarni sanaladi. Tijorat bankining jalb qilingan mablag'larda banklararo kreditlari ulushining kattaligi uning depozit siyosati yaxshi ishlab chiqilmaganligini ko'rsatadi.

Bank chiqargan qarz majburiyatlari moddasida tijorat banki tomonidan chiqarilgan qarz majburiyatlari aks ettiriladi. Qarz majburiyatlarini chiqarish bankka uzoq muddatli manbalarni bank uchun qulay tarzda shakllantirish imkonini beradi. Bundan tashqari, bu katta hajmdagi qarz mablag'lari bank uchun qulay hisoblanadi, chunki uning pulini to'lab va qaytarib olish sanasi oldindan ma'lum bo'ladi, bu esa bankning to'lovga noqobillik riskini kamaytiradi.

Bank passivlarining asosiy moddalaridan biri ustav kapitalidir. Tijorat bankining ustav kapitali, bankning o'z mablag'lari hajmini ifodalaydi. Markaziy bank tijorat banklarining kapital hosil qilish darajasi va tuzilmasini tartibga solib turadi,

bu esa bank operatsiyalarining daromadlilikini yaxshilaydi, umuman tijorat faoliyati muvaffaqiyatli bo'lishini ta'minlaydi.

Bank tizimiga ishonchni mustahkamlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tijorat bankining moliyaviy faoliyati sifatini oshirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirib bormoqda. O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonunining 42moddasiga, shu bilan birga, «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida»gi va «Buxgalteriya hisobi» to'g'risidagi qonunlarga muvofiq banklarning e'lon qilinadigan hisobotlariga doir O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining talablari to'g'risida Nizom ishlab chiqildi. Ushbu Nizomning ishlab chiqilishi Tijorat banklari yillik hisobotlarining ochiq matbuotda e'lon qilinishi dunyoda muayyan darajada oshkoraligi bilan ajralib turadigan bank tizimini yaratish uchun dastlabki qadam bo'ldi. Nizomga ko'ra barcha banklar o'z yillik hisobotlarini, jumladan balans hisobotini matbuotda e'lon qilishlari lozim. Bu esa 1sonli MHXSlari talablariga mos keladi.

3.3. Banklarning omonat kassalarida amaliyot kunini yakunlash va kunlik hisobot tuzishini tekshirish

Omonat kassalarda amaliyot kuni tugagandan keyin naqd pullar, qimmatliklar, qat'iy hisobda turuvchi blankalar va boshqa hujjatlar sanaladi, muomalalar bo'yicha Operatsion kundalik va Operatsion kundalikka ilova tuziladi, hisob ma'lumotlarini haqiqatdagi mavjud naqd pullar, qimmatliklar va qat'iy hisobda turuvchi blankalar miqdori (summasi) bilan muvofiqligi aniqlanadi.

Operatsion kundalik kun davomida o'sib borish tartibida bir nusxada tuziladi. Operatsion kundalikda omonatlar bo'yicha muomalalarni kiritishda, muomalalar bajarilgan shaxsiy hisobvaraqlarning raqami, omonatchining familiyasi, ismi va otasining ismi, shuningdek mos ravishda "Naqd pul-Kirim" yoki "Naqd pul-CHiqim" ustuniga omonatchining shaxsiy hisobvarag'i bo'yicha naqd pulda qabul qilingan yoki berilgan omonat summasi ko'rsatiladi. Omonat bo'yicha naqd pulsiz hisobga kiritish va hisobdan chiqarish bo'yicha muomalalarda omonat summalari Operatsion kundalikning "Memorial aylanmalar-Kirim qilingan" va "Memorial aylanmalar-CHiqim qilingan" ustunlarida ko'rsatiladi.

Harakatsiz omonatlar bo'yicha har bir memorial orderning summasi Operatsion kundalikning "Memorial aylanmalar" ustunida va Operatsion kundalikka ilovaning "CHiqib ketgan" ustunida aks ettiriladi.

Yo'qolgan omonat daftarchalari bo'yicha omonatni yangi shaxsiy hisobvaraqqa o'tkazish muomalasi Operatsion kundalikda alohida satrlarda aks ettirilib, omonat summasi Operatsion kundalikning "Memorial aylanmalar" ustunida ko'rsatiladi.

Operatsion kundalikning to'lgan varag'idagi barcha ustunlarining oxirgi satridagi yakuniy summa yangi varaqning mos ustunlarining birinchi satriga o'tkaziladi.

Operatsion kundalikka ilova omonat kassasi kunlik hujjatlar bo'yicha hisobotlarning tarkibiy bo'lagi hisoblanadi. Operatsion kundalikka ilovaning "Omonatlar" bo'limida har bir omonat turi bo'yicha oldingi amaliyot kunining kun

oxiriga qoldig'i yangi amaliyot kunining kun boshiga qoldig'i sifatida o'tkaziladi (summada va miqdorda) va kun davomida har bir omonat turi bo'yicha amalga oshirilgan muomalalar birlamchi hujjatlar bog'lamlari ustxatiga yozilgan aylanmalar summasi (kelib tushdi va chiqib ketgan) hamda shu asosda hisoblangan amaliyot kuni oxiriga qoldiq (summada va miqdorda) yoziladi.

Operatsion kundalikka ilovaning "Qat'iy hisobda turuvchi blankalar" bo'limining "Olingan" ustunida orderga muvofiq olingan, "Ishlatilgan" ustunida esa Ishlatilgan qat'iy hisobda turuvchi blankalarni hisobdan chiqarish orderi bo'yicha (buzilgan qat'iy hisobda turuvchi blankalar soni kiritilgan holda) har bir turdagi qat'iy hisobda turuvchi blankalar soni yoziladi. Boshqa omonat kassalarga jo'natilgan qat'iy hisobda turuvchi blankalar memorial orderlar asosida "Jo'natilgan" ustunida yoziladi, "Kun oxiriga qoldiq" ustunida kun oxiriga qolgan har bir turdagi qat'iy hisobda turuvchi blankalar soni yoziladi va kun oxiriga qolgan "Jami" satri bilan solishtiriladi ("Kun boshiga qoldiq" + "Olingan" – "Ishlatilgan" – "Jo'natilgan"). "Blanka raqamlari" ustunida qolgan qat'iy hisobda turuvchi blankalarning raqamlari ko'rsatiladi.

Operatsion kundalikka ilovaning "Muomalalar hisobi" bo'limining "Kun davomida" ustuni kun davomida bajarilgan muomalalar va orderlar soni bo'yicha to'ldiriladi. Operatsion kundalikka ilovaning "Naqd pulsiz muomalalar to'g'risida ma'lumotnoma" bo'limi naqd pulsiz amalga oshirilgan muomalalar summasi bo'yicha to'ldiriladi.

Nazoratchi Operatsion kundalikka ilovada ko'rsatilgan qimmatliklar va qat'iy hisobda turuvchi blankalarning umumiy qoldig'ini Operatsion kundalikdagi ma'lumotlar bilan solishtiradi. Operatsion kundalik va Operatsion kundalikka ilova raqamlanadi, nazoratchi va kassir tomonidan familiyasi, ismi va otasining ismi ko'rsatilgan holda imzolanadi va omonat kassasi muhri qo'yiladi.

Bir necha nazoratchi faoliyat yuritayotgan omonat kassalarda har bir nazoratchi Operatsion kundalikni faqat omonat muomalalari bo'yicha to'ldirishi lozim. Kun oxirida, har bir nazoratchi tomonidan omonat muomalalari bo'yicha to'ldirilgan Operatsion kundaliklarning yakuniy summalari boshqa muomalalar

bo'yicha Operatsion kundalik va Operatsion kundalikka ilovada omonat turlari bo'yicha alohida jami summolari chiqariladi.

Kassir kunlik muomalalar bo'yicha yakun yasashda quyidagilarni amalga oshiradi:

- nazoratchidan unga kun boshida berilgan qat'iy hisobda turuvchi blankalarning ishlatilmagan qoldiqlarini sanab oladi, ularni "Qat'iy hisobda turuvchi blankalarning harakatini hisobga olish daftari"ga yozadi va ishlatilmagan qat'iy hisobda turuvchi blankalar qaytarib olganligini imzosi bilan tasdiqlaydi;

- nazoratchidan Ishlatilgan qat'iy hisobda turuvchi blankalarni hisobdan chiqarish orderini oladi, uni tekshiradi va imzolaydi;

- naqd pullar, qimmatliklar, qat'iy hisobda turuvchi blankalarini haqiqatdagi qoldiqlarini kassa hujjatlaridagi ma'lumotlar bilan solishtiradi va qoldiqlar bo'yicha ma'lumotnoma tuzib, nazoratchiga beradi;

- kun davomida kirim va chiqim qilingan pul summasini amaliyot kun boshida olingan naqd pul bo'nagini hisobga olgan holda qoldiq summa bilan solishtiradi, summalar mos kelmasa, uning sabablarini aniqlaydi va zarur bo'lgan hollarda, qayta sanaydi;

- naqd pullarni belgilangan tartibda shakllantiradi va o'raydi, orderlar va boshqa hujjatlarni ularning alohida turlari bo'yicha sanab chiqib, omonat kassasi raqami, hujjatlar soni va summasini ko'rsatgan holda o'raydi hamda nazoratchiga beradi.

Nazoratchi kunlik muomalalar bo'yicha yakun yasashda quyidagilarni amalga oshiradi:

- ishlatilmagan qat'iy hisobda turuvchi blankalarni kassirga topshiradi va "Qat'iy hisobda turuvchi blankalarning harakatini hisobga olish daftari"da imzo bilan tasdiqlaydi;

- ishlatilgan va buzilgan qat'iy hisobda turuvchi blankalar bo'yicha Ishlatilgan qat'iy hisobda turuvchi blankalarni hisobdan chiqarish orderini tuzadi;

- kassirdan kun oxiriga naqd pullar, qimmatliklar va qat'iy hisobda turuvchi blankalar hisob-kitobi natijasi to'g'risida qoldiqlar bo'yicha ma'lumotnomani oladi;

- Operatsion kundalik va Operatsion kundalikka ilovaning ustunlaridagi yozuvlarni hisob-kitob qilib, naqd pullar qoldig'ini va qimmatliklarning jami summasini hisoblab chiqadi va uni kassir tomonidan hisoblangan naqd pullar qoldig'i bo'yicha tuzilgan ma'lumotnoma bilan solishtiradi;

- kassirdan barcha hujjatlarni qabul qilib, omonatlar va boshqa muomalalar bo'yicha umumiy banderollarda kassir tomonidan yozilgan summalarni Operatsion kundalik ustunlaridagi yakuniy yozuvlari bilan solishtiradi;

- Operatsion kundalikka ilovaning barcha ustunlari bo'yicha jamlanma natijalar chiqarilgandan keyin navbatdagi yig'ma satrlarda kunlik muomalalar aylanmasi bo'yicha balans summasini hisoblab chiqaradi va kassir bilan birgalikda, familiyasi, ismi va otasining ismi ko'rsatilgan holda, imzo qo'yadi;

- keyingi ish kuni uchun Operatsion kundalikka ilovani tayyorlaydi va uni barcha bo'limlari bo'yicha qoldiqlarini yozadi;

- Kassir bilan birgalikda kartotekalar saqlanayotgan temir shkafni qulflab, surg'ich yoki plastilin bilan muhrlaydi (tushlik vaqtida kartotekalar saqlanayotgan temir shkaf nazorat qulflari bilan qulflanadi);

- inkassator xaltalariga pullarni joylashtirishda ishtirok etadi va ilova qaydnomasini tuzib inkassatorlar orqali bank filialiga yuboradi.

Bir necha nazoratchilar faoliyat ko'rsatadigan omonat kassalarda omonat kassasi mudiri kunlik muomalalar yakunida qo'shimcha ravishda, quyidagilarni amalga oshiradi:

- nazoratchilar tomonidan tuzilgan va kassirlar bilan birgalikda imzolangan kunlik Operatsion kundaliklarni oladi;

- Operatsion kundaliklardagi jami summalarni yig'ma Operatsion kundalikda jamlab yozadi va yakun chiqaradi;

- katta kassirdan barcha hujjatlarni olib, hujjatlarning har bir turi bo'yicha banderollarda yozilgan jami summalarni hisoblab chiqadi, hisoblab chiqarilgan

summani va yig'ma orderlardagi jami summalarini hisobga olgan holda, yig'ma Operatsion kundalikning tegishli ustunlaridagi summalar bilan solishtiradi va Operatsion kundalikni katta kassir bilan birgalikda, familiyasi, ismi va otasining ismi ko'rsatgan holda, imzo qo'yadi;

- kun oxirida katta kassirdagi mavjud naqd pullar, qimmatliklar va qat'iy hisobda turuvchi blankalarni summasi va sonini yig'ma Operatsion kundalikda va Operatsion kundalikka ilova ma'lumotlari bilan solishtiradi.

Kunlik muomalalarni yakunlashda yig'ma Operatsion kundalikning ayrim ustunlaridagi yakuniy summalar hujjatlarda ko'rsatilgan summaga mos kelmasa, omonat kassasi mudiri (katta nazoratchi, nazoratchi) uning sabablarini aniqlashi va bartaraf etishi lozim.

Omonat kassasida naqd pul yoki qimmatliklar bo'yicha aniqlangan ortiqcha yoki kamomad yuzasidan "Tijorat banklarida kassa ishlarini tashkil etish, inkassatsiya va qimmatliklarni tashishga doir yo'riqnoma"da (ro'yxat raqami 1831, 2008 yil 27 iyun) belgilangan tartibda dalolatnoma rasmiylashtiriladi. Bunda, ortiqcha chiqqan naqd pul yoki qimmatliklar bank foydasiga kirim qilinadi, kamomad esa belgilangan tartibda javobgar shaxsdan undirib olinadi.

So'nggi nazorat qilish uchun berilgan kunlik hujjatlar banderol sifatida yelimlangan Operatsion kundalikka qo'shiladi hamda sana va omonat kassasi raqami yoziladi.

Kunlik hisobot va unga ilova qilingan hujjatlar omonat kassalar tomonidan keyingi kundan kechiktirmasdan inkassatsiya xizmati orqali yoki nazoratchi tomonidan bank filialiga yetkazilishi lozim.

Omonat bo'linmasi omonat kassalarining kunlik hisobotlari va ularga ilova qilingan hujjatlarni o'z vaqtida topshirilishini alohida daftarga qayd etilishi yuzasidan kunlik nazorat o'rnatishi lozim.

Omonat kassasi ish vaqti tugagandan so'ng, Ichki ishlar vazirligi huzuridagi markaziy qo'riqlash pultiga topshirilishi va "Omonat kassasini qo'riqlash xizmatiga topshirish va qabul qilish daftari"ga nazoratchi yoki kassir tomonidan qayd etilishi lozim.

Xulosa va takliflar

Istiqlol yillarida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar xalqimiz turmush farovonligini ta'minlashda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bunda tabiiyki moliya muassasalarining ham o'ziga xos o'rni bor. Xususan, tijorat bankining faoliyat doirasi kundan-kunga kengayib, mazkur moliya muassasalari tomonidan aholi va tadbirkorlik sub'ektlariga namunali xizmat ko'rsatilayotgani shundan dalolat beradi.

Bugungi kunga kelib O'zbekistonda yaratilgan sharoitlar natijasida boshqa ko'pgina tarmoqlar singari bank tizimi ham rivojlanib kelmoqda.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklari yuqori foydaga intiluvchi sub'ektlar ichida yetakchilardan biri bo'lib qoldi.

Bizga ma'lumki, har bir xo'jalik yurituvchi sub'ektlar qatori tijorat banklari ham foydasini ko'paytirishga harakat qilar ekan, ular buxgalteriya hisobi ishlarini to'g'ri tashkil qilishga va hisob ishlarini hatosiz yuritishga harakat qiladilar.

Banklarda buxgalteriya hisobini tashkil etishda buxgalteriya hisobining qonuniy va uslubiy asoslari bo'lib, O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonuni", "Buxgalteriya hisobining milliy standartlari", "Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari" hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan ishlab chiqarilgan me'yoriy hujjatlari hisoblanadi. Ushbu qonuniy hujjatlar buxgalteriya hisobini yuritishda tartibga soluvchi qonuniy hujjatlar hisoblanadi va mulkchilik shaklidan, ya'ni, qaysi tarmoqqa tegishliligidan hamda katta-kichikligidan qat'iy nazar barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlar uchun amal qilinadi. Banklarda amalga oshirilayotgan operatsiyalarning analitik va sintetik hisob ma'lumotlari birlamchi ma'lumotlar hisoblanadi. SHu boisdan, ushbu hisob ma'lumotlarning bosh hamda yordamchi kitoblarda to'g'ri rasmiylashtirilishi buxgalteriya hisobini yuritishni osonlashtiradi. SHuningdek, ularni banklarda buxgalteriya hisobining hisobvaraqlari tizimida aks ettirishga yaqindan yordam beradi. Bu o'z navbatida, bankning buxgalteriya balansini tuzishga sharoit yaratadi.

SHunday qilib, banklarda buxgalteriya hisobini yuritishda avvalo uning nazariy asoslarini chuqur o'zlashtirish hamda buxgalteriya hisobi va xisobotlarini tuzishga oid me'yoriy hujjatlarni ham bilishni taqazo etadi. YUqoridagilardan kelib chiqib, xulosa qiladigan bo'lsak, banklarda analitik va sintetik hisob ma'lumotlarining dastlabki hisobi har bir hisobvaraqlar bo'yicha o'z vaqtida aniq hamda to'g'ri rasmiylashtirilishi, ularning qayta ishlanishi buxgalteriya hisobi ishlarini tashkil qilishni yengillashtiradi va balans hisobotlarini tuzishni tezlashtiradi, shuningdek, bankning ish kuni yakunlanishiga yordam beradi. Banklarda ichki hisob-kitoblarni tashkil etish - uning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanishidir. CHunki banklarda buxgalteriya hisobi korxona va tashkilotlarda yuritiladigan buxgalteriya hisobidan farqli o'laroq, hisobni yuritishdagi operativliligi, aktiv va passivlarni real baholashning mavjudligi, kapitaldan samarali foydalanish imkoniyatining realligi, kundalik mijozlar bilan bo'ladigan operatsiyalarning o'z vaqtida ramiylashtirilishi va shaxsiy hisob varaqalarga to'g'ri o'tkazilib, kundalik balans tuzish orqali umumlashtirish asosida nazorat qilish xususiyatlari bilan keskin farq qilishligidir.

Biz bitiruv malakaviy ishini ATB "Agrobank" Baliqchi filiali misolida banklarda ichki operatsiyalar hisobi bilan tanishib chiqdik. Olib borgan ilmiy izlanishlarimiz natijasida avvalo olgan nazariy bilimlarimizni aniq korxona misolida bog'lagan holda tanishib, o'rganib chiqish imkoniyatiga erishdik. Bitiruv malakaviy ishi mavzusini oldimizga belgilab olgan rejalarimiz asosida atroflicha yoritishga va ochib berishga harakat qildik va ishimiz yakunida bildirgan xulosalarimizga ko'ra quyidagi takliflarni keltiramiz:

1. Tijorat banklarining buxgalteriya hisobi hisobvaraqlari rejasida moliyaviy xo'jalik faoliyatiga baho berish uchun va yakuniy moliyaviy natijani aniqlash uchun alohida hisobvaraq ajratilmagan. Bank daromadlari va harajatlari yil yakunida to'g'ridan-to'g'ri 31206 – "Taqsimlanmagan foyda"(aktiv-passiv) hisobvarag'iga olib boriladi.

Bizning fikrimizcha, yakuniy moliyaviy natija hisobini olib borish uchun alohida "YAkuniy moliyaviy natijalar" sintetik hisobvarag'ini kiritish maqsadga

muvofoiq bo'radi. Ushbu hisobvaraqa bank faoliyatining moliyaviy natijasi, ya'ni olingan jamiki daromadlar va sarflarni taqqoslash natijasida qoldiq sifatida aks ettirish imkoni bo'lar edi;

2. Tijorat banklarida asosiy vositalarni sotib olishda to'lanadigan QQS (qo'shimcha qiymat solig'i) yana asosiy vosita qiymatiga kiritilib aktivlarda aks ettirilyapti. Bunda banklar aktivlarning ko'payib ketishiga va aktivlar tarkibida foyda keltirmaydigan aktivlar salmog'ining oshib ketishiga olib kelyapti. SHuning uchun ushbu to'lanadigan soliq to'g'ridan-to'g'ri xarajatga olib borilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

3. ATB "Agrobank" Baliqchi filialida foydalanilmayotgan asosiy vositalarni mavjudligi holatiga duch keldik. Bizningcha ushbu foydalanilmayotgan asosiy vositalarni ishga yaroqli yoki yaroqli emasligini ko'rib chiqilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Toshkent O'zbekiston 1992-yil
2. O'zbekiston Respublikasi “ Buxgalteriya xisobi to'g'risida”gi qonuni
“O'zbekiston ovozi” gazetasi, 2016-yil 30-mart.
3. “O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 1995 yil 21 dekabr.
4. “Banklar va bank faoliyati to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 1996 yil 25 aprel.
5. “Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 2002 yil 5 aprel.
6. “Iste'mol krediti to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 2006 yil 5 may.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi 20.01.2009 y. PQ-1041 Qarori. "O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami", 2009 yil, 4-son
8. “Banklarning kapitallashuvini yanada oshirish va iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi investitsiya jarayonlarida ularning ishtirokini faollashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 2007 yil 12 iyul
9. “Bank tizimini yanada erkinlashtirish va isloh qilish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida”. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000 yil 21 martdagi Farmoni.
10. “Bank tizimini yanada isloh qilish va erkinlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 15 apreldagi Qarori.
11. “Bank tizimini isloh qilishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 24 martdagi 104 sonli Karori.

- 12.O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki tomonidan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi banklarida buxgalteriya hisobini yuritish va buxgalteriya ishlarini tashkil qilish tartibi to'g'risida" gi YO'riqnoma. 2008 yil 11 iyul.
- 13.O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki tomonidan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi banklarida asosiy vositalarning buxgalteriya hisobi to'g'risida" gi YO'riqnoma. 2004 yil 24 noyabr.
- 14.O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki tomonidan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi banklarida nomoddiy aktivlarning buxgalteriya hisobi to'g'risida" gi YO'riqnoma. 2002 yil 12 oktabr.
- 15.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi" Xalq so'zi gazetasi 2016 yil 16 yanvar
- 16.Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari / – T.:O'zbekiston, 2009. 56 b.
- 17.Karimov I.A. "Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya, moliyaviy barqarorlik to'g'risida", T.: O'zbekiston, 2005 yil. 528 bet.
- 18.Karimov I.A. "Inson manfaatlari ustuvorligini taminlash – barcha islohot va o'zgarishlarimizning bosh maqsadidir" 2008 yil 9 fevral.
- 19.Abdullaeva SH.Z. Bank resurslari va ularni shakllantirish asoslari. SH.Z. Abdullaeva, Karimov F.SH., K.N. Navro'zova, U.D. Ortiqov. – 2004 yil 263 bet.
- 20.Abdullaeva SH.Z. Bank risklari va kreditlash/. Darslik T –TMI, 2002 yil 182 bet.
- 21.Abdullaeva SH.Z. Pul, kredit va banklar Darslik T– TMI, 2007 yil 348 bet.
- 22.Abdullaeva SH.Z. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari. O'quv qo'llanma. TMI. – 2005 yil 459 bet.
- 23.Баталов А.Г. Банковская конкуренция /. - М: Экзамен 2002, стр.168

- 24.Белоглазовой Т.Н., Короливеской Л.П. “Банковское дело” Под. ред. Москва Питер- 2008, стр. 324
25. Rashidov O. “Pul kredit va banklar” TDIU “Iqtisodchi” 2008 yil 54b
- 26.Лаврушин О.И. Деньги, кредит, банки. “Кнорус” 2007 г 320 с.
- 27.Omonov A.A. Tijorat banklarining moliyaviy resurslarini boshqarish. T.: “Fan va texnologiya”. Monografiya, 2008 yil, 248 b.
- 28.Mullajonov F.M. Pul-kredit sohasidagi mavjud vaziyat va monetar siyosatning 2009 yilga mo’ljallangan asosiy yo’nalishlari. “Bozor, pul va kredit” jurnali 2009 y №2.
- 29.Dusmuhamedova Z. “Omonatlar kafolatlangan”. Bozor, pul va kredit jurnali, 2004 yil fevral №2.
- 30.Тураев Ш. “Гарантия защиты вкладов граждан в коммерческих банках” Бозор , пул ва кредит журнали , 2003 йил август,№8
- 31.Ergashxujayev N. “Aqoli omonatlarini kafolatlash- davr talabi”, Bozor, pul va kredit jurnali , 2003 yil. avgust, №8
- 32.Qodirov A. “Tijorat banklari faoliyatining tahlili” “Bozor, pul va kredit”, 2005 y.
- 33.Tijorat banklarining yillik hisobotlari ma’lumotlari 2008 yil.

34.Internet saytlari

[www. scu.uz](http://www.scu.uz)

www.microfinance.uz

www.uzreport.com.

www.banking.com